

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**

JUMALI SHABANOV, XAYRULLA HAMIDOV

TURK TILINING IM- LO QOIDALARI

(turk filologiyasi bo‘limi talabalari uchun)

TÜRKÇE YAZIM KURALLARI

Toshkent - 2010

Oliy o'quv yurtlarining turk filologiyasi bo'limlarida tahsil olayotgan 1-2-kurs talabalari uchun mo'ljallangan ushbu qo'llanmadan akademik litseylarda turk tilini o'rganayotgan o'quvchilar, shuningdek, turk tilini mustaqil ravishda o'rganayotgan har kim foydalanishi mumkin. Qo'llanmada to'plangan materiallar turk tili imlosining takomili haqidagi masalalarni yangi ma'lumotlar bilan asoslash, mavjud nazariy fikrlarni boyitish va tilni yanada chuqurroq o'rganishga ko'mak beradi. Kitob turk tili fonetikasi, imlo qoidolari bilan bog'liq dars mashg'ulotlari uchun muhim qo'llanma hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim sohasida olib borilayotgan islohatlar, yangi pedagogik texnologiyalarni chet tili (turk tili)ni o'qitish jarayoniga tatbiq qilish doirasida Toshkent davlat sharqshunoslik institutida amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlarga hissa sifatida ishlab chiqilgan mazkur qo'llanma elektron darslik shaklida ham qo'llanishi mumkin.

Mas'ul muharrir:

*filologiya fanlari doktori **Zilola Xudoyberganova***

Taqrizchilar:

*filologiya fanlari nomzodi, dotsent **Gulchehra Rixsiyeva***

*filologiya fanlari nomzodi, dotsent **Abdumurod Tilavov***

Toshkent davlat sharqshunoslik institutining O'quv-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan (№ 4, 17. 06. 2010).

SO‘Z BOSHI

Sharqda matn savodxonligi, fikrni qog‘ozga to‘g‘ri tushirish hamda xatosiz yozish masalasi hamisha e‘tiborda bo‘lib kelgan. Shu bois, qadim kezlardan boshlab matnni to‘g‘ri yozishga bag‘ishlangan imlo lug‘atlari yaratilgan. Buning dalilini bizga qadar saqlangan filologik asarlardan topish mumkin. XX asrdan boshlab matnni to‘g‘ri yozishga qaratilgan imlo me‘yorlari Yevropa andozasi asosiga o‘tdi. O‘tgan asrning 30-yillariga kelib o‘zbek, turk va boshqa turkiy xalqlar tillarining imlo qonun-qoidolari G‘arb orfografiya ilmi bo‘yicha yaratildi. Hozirga kelib ushbu imlo qoidalariga o‘zgartishlar kiritilib, takomillashib bormoqda.

O‘tgan asrning 90-yillaridan boshlab mamlakatimizda turk tilini o‘qitish bilan bog‘liq ta‘lim yo‘nalishlarining rivojlanishi, yurtimizda turk tilining imlo qoidalariga bag‘ishlangan qo‘llanmalarini yaratilishiga ham asos bo‘ldi. Ana shunday urinishlardan birinchisi sifatida 1995 yilda chop etilgan Jumali Shabanovning “Turk tili imlo qoidolari” nomli risolasini esalash mumkin. Biroq, so‘nggi yillarda Turkiyada yozuv qoidolari bir qadar o‘zgartirilib, yangi imlo me‘yorlari qabul etildi. Ana shu o‘zgarishlar hisobga olingan turk tilining yangi imlo me‘yoriga bag‘ishlangan kitobga zarurat sezilmoqda edi. Shuni hisobga olgan Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Turkiy tillar kafedrasining yetakchi o‘qituvchilari J. Shabanov va X. Hamidov qo‘lingizdagi “Turk tilining imlo qoidolari” o‘quv qo‘llanmasini yaratdilar. Mazkur o‘quv qo‘llanma mamlakatimiz oliy o‘quv yurtlarida turk tili yo‘nalishida o‘qiyotgan talabalarning xat-savodini o‘stirishga ko‘mak beradi. Shuningdek, shu sohada faoliyat olib borayotgan mutaxassislar uchun turk tilining imlo qoidolari bo‘yicha yetakchi qo‘llanma vazifasini o‘taydi, degan umiddaman.

*ToshDSHI Turkiy tillar kafedراسи mudiri, dotsent
Quadratulla Omonov*

KIRISH

Hozirgi turk tili imlo qoidalarining shakllanishi. Imlo qoidalari har tilda o'ziga xos. Yozuvdagi ba'zi qat'iy qoidalar hamma til uchun umumiydir. Shu bilan birga, imlo qoidalari qotib qolgan narsa emas, aksincha, tirik, rivojlanib boruvchi hodisadir. Til taraqqiy etib borgan sayin, u bilan bog'liq qoidalar ham o'zgarib, rivojlanib boradi.

Mazkur qo'llanmani yaratishdan asosiy maqsad turk tilining imlo qoidalari bilan bog'liq barcha ma'lumotlarni imkon doirasida izohlash, turkcha imloning o'ziga xos jihatlarini ta'kidlash hamda so'nggi yillarda yozuvda ro'y bergan o'zgarishlarni umumiy yozuv qoidalari bilan yagona qamrovda o'rganishdan iborat.

Qo'llanmada hozirgi turk tili imlo qoidalarining shakllanish va takomil jarayoni, yozuv qoidalarining eng oxirgi holati, turk tilidagi tovush, harf va alfavitning xususiyatlari siralanib, turk tilidagi tovush uyg'unligi hodisasi, ba'zi so'z va qo'shimchalar imlosi, qo'shma va takror so'zlar, yordamchi so'z va qo'shimchalarning yozilishidagi qat'iy qoidalar, tinish va yozuv belgilarining qo'yilish o'rinlari sanab o'tildi.

Respublika davri. Turkiya Respublikasi tashkil topgandan keyingi davrda turk tilining leksik qatlamida misli ko'rilmagan o'zgarishlar bo'ldi. Usmonli turk tili rivojlangan davrda "eskirgan so'z" deb qo'llanilmay qo'yilgan yuzlab so'zlar o'z lisoniy maqomini qayta tikladi. Oddiy xalq tilidagina saqlanib qolgan, saroy adabiyotidan chiqarib tashlangan so'zlar adabiy til maydonida faollashdi. Tilga fan-texnika, tibbiyot, iqtisodiyot, huquq, sport va boshqa sohalarga oid yangi so'zlar kirib keldi. Turli sohalarga doir lug'atlar tayyorlandi. Til taraqqiyoti bilan bog'liq barcha o'zgarishlar imlo lug'atlarida o'z aksini topdi. Kundalik hayotda, Turkiyaning turli viloyatlarida qo'llanilib kelgan shevaga oid so'z va unsurlar, ba'zi badiiy asarlarda qahramonlar tilida ishlatilgan so'zlar ham imlo lug'atlaridan o'z joyini egalladi.

Imlo lug'atlari har safar qayta nashr etilganda, yangi-yangi so'z va me'yorlar hisobga olindi.

Turk tilida yozuv prinsiplari. Imlo – orfografiya (yunon. *orthographia*, *orthos* – to‘g‘ri va *grapho* – yozaman so‘zlaridan olingan) 1) yozma nutqda qo‘llaniluvchi, tarixan shakllangan bir xil tarzda yozuv tizimi; 2) bir xil tarzda yozuvni ta‘minlovchi qoidalar tizimini ishlab chiquvchi va o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limidir.¹ Ya‘ni, tilning ma‘lum qoidalariga muvofiq yozuvga o‘tkazilishiga **imlo** (*yazım, imla*) deb ataladi². Hozirgi turk tilida arab tilidan o‘zlashgan **imla** (ar. *imlâ* 1. yazım; 2. to‘ldirish 1) bir kishiga bir narsani aytib yozdirmoq; 2) to‘ldirmoq³) va sof turkcha “yazmak” fe‘li asosida yasalgan **yazım** (yazım – grammatika atamasi; Bir tilning muayyan qoidalariga binoan yozuvga o‘tkasilishi; *imlâ* atamasining turkcha sinonimi⁴) atamaları qo‘llanadi. Imloga oid barcha qoidalar, so‘zlar, atoqli otlar va qisqartmalarning imlo qoidalariga ko‘ra yozilish shakllari alfavit tartibida joy oladi.

Imlo bir xil tarzda yozuv tizimi sifatida tovushli-harfli yozuvda bir necha turga bo‘linadi. Bunda har bir tur muayyan prinsipga asoslangan qoidalar yig‘indisini tashkil etadi.

Imlo prinsiplarining mohiyati shundaki, u yerda bir narsaning ikki yoki undan ortiq yozuv ko‘rinishi turganda, imlo qoidasi ulardan birini, ya‘ni eng to‘g‘risini tanlashni talab qiladi. Ana shu imlo prinsiplari asosida imlo qoidalari yoki umumlashtiruvchi qonunlar ishlab chiqiladi.

Tovushlarning harflar bilan belgilanishi hozirgi zamon tovush-harf tizimlari imlosining asosiy bo‘limi hisoblanadi⁵. Ma‘lum bir milliy til imlosida so‘zning tovush tarkibini belgilashda qaysi prinsip asosiy hisoblanishi o‘sha tilning imlo prinsiplariga bog‘liq.

Hozirgi paytda barcha tillarning orfografiyasi (imlo)da morfologik, fonetik, an‘anaviy hamda morfologo-imloviy prinsiplar amal qiladi.

Turk tilining imlo qoidalarida esa quyidagi uch 3 asosiy prinsip belgilanadi. Unga ko‘ra:

¹ Лингвистический энциклопедический словарь, Москва, Научное издательство, «Большая Российская энциклопедия», 2002, с. 350

² Yazım Kılavuzu, Türk Dil Kurumu Yayınları, 25.Baskı, Ankara, 2008, Sunuş, S. I

³ Türkçe Sözlük, Türk Dil Kurumu, 9.Baskı, Ankara, 1998

⁴ Türkçe Sözlük, Türk Dil Kurumu, 9.Baskı, Ankara, 1998

⁵ Лингвистический энциклопедический словарь, Москва, Научное издательство, «Большая Российская энциклопедия», 2002, с. 350

1. Tildagi har bir tovush yozuvda alohida harf bilan belgilanadi. Jonli tilga asoslangan bunday yozuvga *tovush imlosi* yoki *fonetik imlo* deyiladi.

2. Turkcha soʻzlarda ham, boshqa tillardan turk tiliga oʻzlashgan soʻzlarda ham ularning oʻzak va negiziga alohida eʼtibor beriladi. Soʻz oʻzagi asos olingan bunday imlo *oʻzak imlosi (köken yazımı)* yoki *etimologik imlo* deyiladi.

3. Turkcha yozuvda til anʼanalariga alohida eʼtibor beriladi. Til-dagi bunday yozuvga *anʼanaviy yozuv (geleneksel yazım)* deyiladi.

Turkcha imlo lugʻatlari. Imlo lugʻati tuzish va nashr qilish vakolati Turkiya Respublikasi Konstitutsiyasining 134-moddasiga muvofiq chiqarilgan 2876-raqamli qonunning 37-moddasi, B-bandiga muvofiq Turkiyadagi M. K. Otaturk tashabbusi bilan tashkil etilib, bugungi kunda ham eng eʼtiborli tashkilot maqomini saqlab qolgan *Turkiya Til Jamiyati (Türk Dil Kurumu)*ga berilgan.

Turkiya Til Jamiyati (Türk Dil Kurumu) tashkil etilgan kundan boshlab, imlo qoidalarining belgilanishi va imlo lugʻatlarining nashr etilishida oʻz zimmasidagi vazifalarini amalga oshirib keladi. Ushbu jamiyat tashkil etilishidan oldin *Turkiya Til Anjumani (Dil Encümeni)* tomonidan nashr etilgan *İmla Lugati* dan tashqari, imlo lugʻatlari soʻnggi 73 yil ichida *İmla Kilavuzu*, *Yeni İmla Kilavuzu* kabi nomlar ostida 25 marta nashr etildi. (Imlo lugʻatining 24-nashri 2005-yil, soʻnggi 25 nashri esa 2008-yilda nashr etilgan).

Turkiyada imlo qoidalarini belgilovchi, turli turkumga mansub soʻzlar, alohida ajratilgan ayrim atoqli otlar, qisqartmalarning yozilishini koʻrsatuvchi bir imlo lugʻatini bosib chiqarish zarurati lotin alfavitiga asoslangan yangi turk harflarining belgilanishi bilan bogʻliq olib borilgan ishlar asnosida yuzaga kelgan. Shuni hisobga olib, yangi harflarni aniqlash ishlarini olib boruvchi *Alifbo Anjumani (Alfabe Encümeni)* 1928-yil «*Alfavit haqidagi raport*» (*Alfabe Raporu*) ni nashr etadi. Yangi turk harflari qabul qilinishi bilan imloda birdamlikni saqlash maqsadida ushbu bildiruvga asosan 1928-yil “*Til Anjumani*” tomonidan bir Imlo lugʻati chiqariladi⁶.

Otaturk Madaniyat, Til va Tarix Yuksak Qurumi Boshqaruv Kengashi, Turkiya Ryespublikasi Oliy taʼlim vazirligi qoshidagi

⁶ Yazım Kılavuzu, Türk Dil Kurumu Yayınları, 25.Baskı, Ankara, 2008, Sunuş, S. 1.

Ta'lim va Tarbiya Kengashi, universitetlarning ilg'or olimlari tashabbusi bilan va ular ishtirokida 2003-yil «İmla Kılavuzu Çalışma Grubu» («Imlo lug'ati ishchi guruhi») tashkil etiladi.

Imlo bilan bog'liq qoidalar belgilanayotganda imlosi bahs-tortishuvli, turli shaklga ega bo'lgan so'zlardan qaysi biri asos qilib olinishi kerakligi, badiiy asarlar, gazeta-jurnallar birma-bir ko'rib chiqilib, ilgari imlo qoidalarida tortishuvlarga sabab bo'lgan imlo qoidalari yana bir bor ko'zdan kechirildi va keng yoyilib an'anaviylashgan shakllarning qabul qilinishi qarorlashtirildi. Nashr qilingan Imlo qoidalari va lug'atda muammoli masalalarga alohida e'tibor berildi, imlo bilan bog'liq ba'zi qoidalarga aniqliklar kiritildi. Shu tarzda imlo bilan bog'liq barcha mavzularni qamrab olgan tafsilotli imlo kitobi yuzaga keldi.

Eng yangi imlo lug'atlari. Imlo lug'atlari Turkiyada 2005-yilgacha *İmla Kılavuzu* (Imlo qoidalari) deb nomlanib kelingan. 2005-yilda imlo lug'atlari tuzish bo'yicha ish olib borgan taniqli turk olimlaridan tashkil topgan ishchi guruhi «*imla*» so'zi o'rniga «*yazım*» so'zini kiritish haqida taklif beradi. Turkiyaning eng obro'li tashkiloti hisoblangan AKDTYK Boshqaruv Kengashi barcha takliflarni ko'rib chiqib, 2005-yilning 10 avgustida o'zining 502/32 - raqamli qarori bilan «*imlo*» atamasini «*yazım*» atamasi bilan almashtirish haqida qaror qabul qiladi. Ushbu qarorga muvofiq 2005-yildan boshlab *İmla Kılavuzu* kitobi *Yazım Kılavuzu* deb atala boshlaydi⁷.

Tilda bixillik. Tilda birdamlikni saqlash uchun, avvalo, imlodagi bixillik saqlanishi kerak edi. Ushbu fikr e'tiborga olinib, turk tilining yagona va hamma amal qilishi kerak bo'lgan imlo qoidalari va lug'atini tayyorlanishi uchun sa'y-harakatlar boshlandi. Bunday kitobni tayyorlashdan maqsad yangi bahs-tortishuvlarga yo'l ochish emas, uzoq vaqtdan beri davom etib kelayotgan tortishuvlarga barham berish va jamoatchilik tomonidan qabul qilinib, barcha amal qiladigan qoidalar, yozuv standartlarini keng xalq ommasi orasida yoyishdan iborat edi.

Yozuvda birdamlikning saqlanishi, ba'zan yozuv qoidalari ustida olib borilayotgan bahs-munozaralarga barham berishda *Imlo qoidalari*ning ahamiyati katta.

⁷ Yazım Kılavuzu, Türk Dil Kurumu Yayınları, 25.Baskı, Ankara, 2008, Sunuş, S. 7.

Kompyuterlardagi *imlo nazorati tizimining* imlodan joy olgan qoidalarga ko‘ra tayyorlanishi va davlat muassasalarida yozishmalarda bixillikni saqlash maqsadida Turkiya Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan chiqarilgan «*Rasmiy yozishmalarda amal qilinishi kerak bo‘lgan asos va usullar haqidagi ko‘rsatmalar*»da ham *Imlo Lug‘atining* asosiy manba sifatida xizmat qilishi ta’kidlangan⁸.

Imlo lug‘atlari yozuvda bixillik saqlanishi masalasida ta’lim beruvchi muassasalardan boshlab, matbuot organlari, rasmiy idoralar, xususiy muassasa va tashkilotlar, hatto alohida shaxslarga qadar, barchaning zimmasiga muhim mas’uliyat yukladi.

Yozuv masalasida yuzaga kelgan tortishuvlarning oldini olish, behuda, asossiz munozaralar olib borib, tilga zarar keltirish o‘rniga uni yanada takomillashtirish, boyitish uchun imlo lug‘ati asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Hozirgi turk adabiy tili va yozuvining asosi. Hozirgi zamon turk adabiy tili va yozuvining shakllanishiga Istanbul dialekti asos qilib olingan. Ammo yozuvda turk tilining boshqa lahja va shevalariga xos so‘zlar ham uchray turadi. Yozuvga asos qilib olingan Istanbul dialekti turk tilida “umumiy so‘zlashuv tili” deb ataladi⁹. Chunki “umumiy so‘zlashuv tili”ning asosi Istanbul lahjasiga tayangan bo‘lsa-da, Turkiyadagi bir necha lahjani o‘z ichiga olganligi haqiqatdir. Yozuvda “umumiy so‘zlashuv tili”da e’tibordan chetda qolgan so‘zlarning talaffuzi va ularning yozilishi inobatga olinmaydi. Og‘zaki nutqda keng qo‘llanib kelinayotgan *ala, alma, yumirta, ısıtma, sekkiz* kabi so‘zlar “o‘rtoq so‘zlashuv tili”da *ela, elma, yumurta, sıtma, sekiz* shaklida yoziladi. Yozuvda ba’zan “umumiy so‘zlashuv tili” tarkibiga kirmagan xalq og‘zaki nutqidagi so‘zlardan foydalanishga to‘g‘ri keladi.

Ma’lumki, nutqda xalq og‘zaki nutqidagi so‘zlarning eski shakllari ham qo‘llanilishi mumkin va ularning yozuvda qo‘llanilishi xato hisoblanmaydi. Masalan, badiiy asarlarda yozuvchilar qahramonlarining o‘z lahjasiga xos so‘zlarni qo‘llashlari mumkin.

⁸ Yazım Kılavuzu, Türk Dil Kurumu Yayınları, 25.Baskı, Ankara, 2008, Sunuş, S. 7.

⁹ Шабанов Ж.К., Турк тили имло қоидалари, Тошкент, 1995, 12-б.

ALFAVIT (ALFABE)

Nutq tovushlarini yozuvda aks ettirish uchun ishlatiladigan belgilar (*işaretler*)ga yozuv (*yazı*); harflarning tartibli tizimiga alfavit (*alfabe*) deyiladi.

Lotin yozuvi asosidagi hozirgi turk alifbosi (alfavit - *alfabe*) 1928-yil 1-noyabrda chiqarilgan 1353-raqamli Turkcha harflarning qabul qilinishi va tatbiq etilishi haqidagi qonun (*Türk harflerinin Kabul va Tatbiki Hakkında Kanun*)ga asosan qabul qilingan va 1929-yil 10- yanvardan e'tiboran amal qila boshlagan. Mazkur turk alifbosi jahon tilshunosligida barcha fonetik yozuvlar ichida ancha puxta ishlangan, turk tilining fonetik-fonologik qonuniyatlarini o'zida mujassam etgan alifbo sifatida tan olingan. Unda harflar soni 29 ta.

Türk alifbosidagi harflarning tartibi, nomlanishi, katta va kichik yozilish shakllari, kodlanishi quyidagi jadvalda berilgan:

Harflar ning tartibi	Katta harflarning yozilish shakli	Kichik harflarning yozilish shakli	Harflarning nomlanishi	Harflarning kodlanishi
1.	A	a	a	Adana
2.	B	b	be	Bolu
3.	C	c	ce	Ceyhan
4.	Ç	ç	çe	Çanakkale
5.	D	d	de	Denizli
6.	E	e	e	Edirne
7.	F	f	fe	Fatsa
8.	G	g	ge	Giresun
9.	Ğ	ğ	yumshoq <i>ge</i>	yumshoq <i>ge</i>
10.	H	h	he	Hatay
11.	İ	i	i	İzmir
12.	I	i	i	Isparta
13.	J	j	je	Jandarma
14.	K	k	ke	Kars
15.	L	l	le	Lüleburgaz
16.	M	m	me	Muş
17.	N	n	ne	Niğde

18.	O	o	o	Ordu
19.	Ö	ö	ö	Ödemiş
20.	P	p	pe	Polatlı
21.	R	r	re	Rize
22.	S	s	se	Sinop
23.	Ş	ş	şe	Şırnak
24.	T	t	te	Tokat
25.	U	u	u	Uşak
26.	Ü	ü	ü	Ünye
27.	V	v	ve	Van
28.	Y	y	ye	Yozgat
29.	Z	z	ze	Zonguldak

Alifbodagi 29 harfdan 8 tasi unli, 21 tasi undosh tovushlarni ifoda etadi. Lekin turk adabiy tilida 33 tovush borligi, shevalarda esa ularning soni 35 dan ortiq, ayrim tovushlarning birdan ortiq variantlari borligi ham ma'lum.

Hozirgi zamon turk adabiy tilida 33 tovush bor (shevalarda ularning soni ortiqroq). Ayrim tovushlarning birdan ortiq variantlari ham uchraydi. Jumladan, [a] tovushi qisqa [a] va cho'ziq [a:] deb talaffuz qilinadi. Yoki alifbodagi <k> harfi so'zning holatiga qarab o'zbekchadagi [q] hamda [k] kabi talaffuz qilinadi. Shundan kelib chiqib, talaffuzda mavjud bo'lgan to'rt tovushning alohida harflari yo'qligini aytish mumkin. Mazkur tovushlar yozuvda boshqa harflar bilan beriladi. Bular <a>, <e>, <g>, <k> harflaridir. <a> harfi "qalin" va "ingichka" ikki tovushni ifoda etadi: *kat* so'zida "qalin", *dikkât*, *kilim* so'zlarida esa "ingichka" tovushdir. <e> harfi "ochiq" va "yopiq" tovush sifatida talaffuz qilinadi. Jumladan, *dede* so'zida "ochiq", *deli* so'zida esa "yopiq" tovush tarzida keladi. Uning "yopiq" shakli o'zbekchadagi [e] tovushi kabidir. <g> harfi "qalin" [gı] va "ingichka" [ge] ni ifoda etadi. Bunga *gaga* va *gel* so'zlarini misol keltirish mumkin. <k> harfi "qalin" va "ingichka" ikki tovushni ifoda etadi. Biri o'zbekchadagi [q], keyingisi [k] tovushi kabidir. bunga *kaç* va *kök* so'zlarini misol keltirish mumkin. Bulardan boshqa turk alifbosida ikki xil tovushni ifodalaydigan <ğ> ham bor. Ushbu tovush ikki xil o'qiladi: [ğı] va [y]. Masalan, *doğdu* so'zida [ğı] kabi, *değdi*, *değil* so'zlarida esa [y] kabi talaffuz etiladi. Buning boisi, tarixan bu

soʻzlar [ğ] bilan talaffuz etilgan. Keyinchalik, ularda tovush oʻzgarishi roʻy berib [g] tovushi [y] ga aylangan. Koʻrinadiki, bu soʻzlarning imlosida yozuv prinsipi amal qilmoqda.

Turkchadagi [y] tovushi uchun alifboda alohida harf bor. Masalan, *bey* soʻzi ana shu harf bilan yoziladi. Demak, turk yozuvida birgina [y] tovushi uchun ikki harf (<ğ> va <y>)dan foydalaniladi. Oʻzbek tilidagi [ng] sonor tovushi bilan kelgan soʻzlar adabiy tilda [n] bilan keladi: oʻzbekcha *dengiz* - turk adabiy tilida *deniz*; oʻzbekcha - *ming*, turkchada – *bin* kabi. Lekin ayrim turk shevalarida, jumladan, Anadoʻlidagi kishilar tilida mazkur tovushni keng uchratish mumkin: *sanga*, *banga*, *dengiz* kabi.

TOVUSHLAR VA ULARNING TAVSIFI (SESLEK VE ÖZELLİKLERİ)

"Tovushlar" turkchada *sesler* deyiladi. Shunga koʻra tilshunoslikning nutq tovushlarini oʻrganuvchi "fonetika" boʻlimi *Ses bilgisi*, *Ses bilimi* yoki *Fonetik* nomini olgan. "Unlilar" - *ünlüler* yoki *sesliler*, *vokaller* "undoshlar" esa *ünsüzler* yoki *sessizler*, *konsonantlar* deb yuritiladi.

UNLI TOVUSHLAR (ÜNLÜLER; SESLİLER)

Tovush yoʻlidan hech qanday toʻsiqqa uchramasdan chiquvchi tovushlarga unli tovush (*ünlü*; *sesli*, *vokal*) deyiladi. Turk adabiy tilida sakkiz unli fonema bor: [a], [e], [ı], [i], [o], [ö], [u], [ü]. Bular hosil boʻlish oʻrni, talaffuz chogʻida til va lablarning holati, ogʻizning ochilishiga koʻra quyidagicha guruhlanadi:

A. Hosil boʻlish oʻrni va tilning holatiga koʻra:

1) orqa qator unlilar: [a], [ı], [o], [u]. Bunday unlilar turk tilshunosligida (*kalin ünlüler*, *kalin sesliler*) deb yuritiladi.

2) old qator unlilar yoki ingichka unlilar (*ince ünlüler*, *ince sesliler*): [e], [i], [ö], [ü].

B. Lablarning ishtirokiga koʻra:

1) lablanmagan unlilar yoki tekis unlilar (*düz ünlüler*; *düz sesliler*): [a], [e], [ı], [i];

2) lablangan unlilar yoki yumaloq unlilar (*yuvarlak ünlüler, yuvarlak sesliler*): [o], [ö], [u], [ü].

C. Og'izning ochilish holatiga ko'ra:

1) keng unlilar (*geniş ünlüler, geniş sesliler*): [a], [e], [o], [ö];

2) tor unlilar (*dar ünlüler, dar sesliler*): [ı], [i], [u], [ü].

Tanglay va lab uyg'unligi (katta va kichik unli uyg'unligi) **(Büyük ve Küçük Ünlü Uyumu)**

Singarmonizm degani so'zdagi tovushlarning bir-biriga hamda o'zakka qo'shimchalarning talaffuz jihatdan uyg'unlashuvidir. Turkiy singarmonizm unlilar tizimida ham, undoshlar tizimida ham amal qiladi.

Unlilar uyg'unligi ikki xil: ular tanglay uyg'unligi (*büyük ünlü uyumu*) va lab uyg'unligi (*küçük ünlü uyumu*)ga bo'linadi. Bunday uyg'unlik *kalinlik-incelik uyumu*, ya'ni unli tovushlarning qalinlik-ingichkalik bo'yicha uyg'unligi hisoblanadi (singarmoniya).

1. **Tanglay uyg'unligi.** Turk tili fonetikasida asosiy (katta) unli uyg'unligi (*büyük ünlü uyumu*) deb nomlangan ushbu qonunga muvofiq qo'shimcha unlisi o'zakdagi unlining tabiati ("qalin" yoki "ingichka"ligi)ga moslashadi. O'zakda old qator unlilar kelgan bo'lsa, qo'shimchada ham shunday unlilar qatnashadi, ya'ni bir so'zning birinchi bo'g'inida qalin bir unli (*a, ı, o, u*) bor bo'lsa, qolgan bo'g'inlardagi unlilar ham qalin, ingichka bir unli (*e, i, ö, ü*) bo'lsa, qolgan bo'g'indagi unlilar ham ingichka bo'ladi: *boyunduruk, ayak, burun, dalga, kırlangıç, gelincik, vergi, gözlük, üzengi* kabi. Agar o'zakda orqa qator unlilar kelgan bo'lsa, qo'shimchada ham shunday unlilar ishtirok etadi: *Elim, evim, kilimden, değerli, kesik, ilgeksiz; balım, avım, yoldan, bağlı, dağınık, parasız* kabi.

2. **Lab uyg'unligi.** Turk tili fonetikasida kichik unli uyg'unligi (*küçük ünlü uyumu*) deb nomlangan ushbu qonun (*lab uyg'unligi*)ning ikki jihati bor:

a) Bir so'zning birinchi bo'g'inida tekis unli (düz ünlü - *a, e, ı, i*) bo'lsa, undan keyin kelgan bo'g'inlarda ham tekis unli (düz ünlü - *a, e, ı, i*) bo'ladi: *gelecek, şimdiden, ayak, anlama, dinleme, kırlangıç, beşik* kabi;

b) Bir so'zning birinchi bo'g'inida yumaloq unli (*yuvarlak ünlü* - *o, ö, u, ü*) bo'lsa, undan keyin kelgan birinchi bo'g'inda tor yumaloq

(dar yuvarlak ünlü - u, ü) yoki keng tekis unli (geniş düz ünlü – a, e) bo‘ladi: *boyunduruk, okuma, gözlük, bozukluk, burun, özlemek, güreşmek* kabi.

Boshqacha aytganda, ushbu qoida so‘zning oxirgi bo‘g‘inidagi unli bilan bog‘liq. Agar oxirgi bo‘g‘in unlisi lablangan bo‘lsa, qo‘shimcha unlisi ham lablanadi. Agar oxirgi bo‘g‘in unlisi lablanmagan bo‘lsa, qo‘shimcha unlisi ham lablanmagan bo‘ladi: *elin, bahçenin, öğretmenin, öncelik, elçilik, okulun, omuzun, gözün, öncülük, gözlük* kabi.

Tovush uyg‘unligiga mos kelmaydigan holatlar **(Ünlü Uyumuna Uymayan Durumlar)**

Turk tilida unli uyg‘unligi qonuniga bo‘ysunmaydigan so‘zlar ham bor. Bular, asosan, turk tiliga boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar bo‘lib, ularning unli uyg‘unligi qonuniga bo‘ysunishi talab qilinmaydi: *ahenk, badem, aylan, çiroz, dükkân, gazete, kestane, limon, model* kabi.

Turkcha so‘zlarda tovush uyg‘unligiga mos kelmaydigan, ya‘ni bu qonunga bo‘ysunmaydigan qo‘shimchalar kam uchraydi. Turkchaga boshqa tillardan kirgan so‘zlardan ba‘zilari bu qonunga tasodifan mos kelib qolgan, bir qismi majburan moslashgan. Ko‘pchiligi esa unli uyg‘unluguga bo‘ysunmaydi, hatto ba‘zi so‘zlar qo‘shimcha qo‘shilganda ham istisno ravishda qonunga “bo‘yin egmay” turaveradi. Sof turkcha so‘zlarda ham unli uyg‘unligiga amal qilinmagan holatlarga duch kelish mumkin. Bulardan bir qismi, turli sabablarga ko‘ra unlilaridan biri ingichkalashgan so‘zlardir: *anne, dahi, şişman, kardeş, inanmak, elma, hangi* kabi.

Ba‘zi turkcha so‘zlar she‘riyatda uchraydigan forscha *çâre, pâre* so‘zlarida qofiyaga moslashish maqsadida, unli uyg‘unligiga bo‘ysunmasdan qo‘llanadi: *(derde) çâre, (kalbi) pâre, (gözü) kâre, (sinesi) yare* kabi.

Qo‘shma so‘zlarning ham uyg‘unlik qonuniga bo‘ysunishi talab etilmaydi: *açıkgöz, bilgisayar, hanımeli, çekyat* kabi.

Turk tilida ba‘zi qo‘shimchalar tanglay uyg‘unligi (*büyük ünlü uyumu*) qoidasiga bo‘ysunmaydi. Bular *-ken, -leyin, -mtirak, -gil, -yor* qo‘shimchalidir: *aşamleyin, baklagiller, çalışırken, ekşimtirak, yürüyor* kabi.

–*daş* (*-taş*) qo‘shimchasi va *–ki* oidlik qo‘shimchasi ba‘zi so‘zlarda tanglay uyg‘unligi qoidasiga bo‘ysunmaydi: *meslek-taş*, *gönül-daş*, *akşamki*, *yazıdaki*, *onunki* kabi.

Tanglay uyg‘unligi qoidasiga bo‘ysunmaydigan so‘zlarga qo‘shiladigan qo‘shimchalar qalinlik yumshoqlik nuqtai nazaridan oxirgi bo‘g‘indagi unliga moslashadi: *adalet-li*, *anne-si*, *kardeş-lik*, *meslektaş-ımız*, *şişman-lık* kabi.

Oxirgi unlilari qalin qatordan bo‘lishiga qaramay ingichkaga o‘xshagan ba‘zi o‘zlashmalar ingichka unli qo‘shimchalar oladi: *alkol* \ *alkolü*, *hakikat* \ *hakikati*, *kabul* \ *kabulü*, *kontrol* \ *kontrolü*, *saat* \ *saatim*, *sadakat* \ *sadakatten*, *moral* \ *moralı* kabi.

Turk tilida yonida turgan lab undoshlari ta‘sirida ikkinchi bo‘g‘in unlisi yumshoqlashgan va shu sababli unli uyg‘unligiga bo‘ysunmay qolgan so‘zlar quyidagilardir: *çabuk*, *yağmur*, *armut*, *kavun*, *avutmak* kabi.

Lab uyg‘unligiga tog‘ri kelmaydigan sof turkcha so‘zlar ham talaygina: *avuç*, *çamur*, *kabuk*, *kavun*, *kavurmak*, *yağmur* kabi.

Boshqa tillardan turk tiliga o‘zlashib qolgan so‘zlardan kichik unli uyg‘unligi qoidasiga amal qilish talab etilmaydi: *aktör*, *alkol*, *bandrol*, *daktilo*, *kitap*, *konsohosluk*, *mühim*, *müzik*, *professör* kabi.

Turkcha so‘zlarga qo‘shiladigan ba‘zi qo‘shimchalarda unli uyg‘unligi buzilganligini ko‘rish mumkin: *çocuk-ken*, *yarın-ki*, *yeşil-imtirak*, *akşam-leyin* kabi.

Kichik unli uyg‘unligiga tog‘ri kelmaydigan ba‘zi so‘zlarga qo‘shilgan qo‘shimchalar so‘zning oxirgi unlisiga moslashishga majbur: *çamur-u*, *kabu-ğ-u*, *kavun-u*, *yağmur-u*, *mümin-lik*, *müzik-çi* kabi.

–*ki* oidlik qo‘shimchasi faqat bir necha so‘zda lab uyg‘unligi (kichik unli uyg‘unligi) qoidasiga bo‘ysunadi: *bugün-kü*, *dün-kü*, *öbür-kü* kabi¹⁰.

Turk tiliga arab tilidan o‘zlashgan ba‘zi unsurlar (*Türkçeye Arapçadan girmiş bazı unsurlar ve özellikleri*). Asl turkcha so‘zlarda uzun unli bo‘lmaydi. Bunday unlilar arab va fors tillaridan turk tiliga

¹⁰ Sodiqov Q., Hamidov X., Xudoyberganova Z., Aminova L., Turk tili, Toshkent, 2005.

kirgan soʻzlarda uchraydi: *şair* (şa:ir), *numune* (numu:ne), *iman* (i:man) kabi. Keltirilgan misollarda ikki nuqtadan oldin turgan hatf ifodalagan tovush uzun unli boʻlib, uzun talaffuz qilinadi. Biroq, baʼzi oʻzlashgan soʻzlarda uzun unlilar qisqargan: *beyaz*, *hiç*, *rahat*, *ruh* kabi. Bu misollarda qalin harflar ifodalab kelgan tovushlar turkchada qisqa talaffuz qilinadi.

Ichida uzun unlisi boʻlib, yopiq boʻgʻin koʻrinishida boʻlgan soʻzlar unli bilan boshlanuvchi qoʻshimcha olganda yoki yordamchi feʼllar bilan birga qoʻllanilganda boʻgʻinlar ochiq holda kelishi mumkin: *esas* / *esasen* (esa:sen); *hayat* / *hayati* (haya:ti); *kanun* / *kanuni* (ka:nu:ni); *ahbap olmak* (ahba:b olmak); *hitap etmek* (hita:b etmek) kabi.

Uzun unlilar odatda yozuvda koʻrsatilmaydi: *adalet* (ada:let), *badem* (ba:dem); *kaide* (ka:ide), *şair* (şa:ir), *şive* (şi:ve) kabi.

Undov soʻzlarda undov soʻzning kuchi, shiddatini, boʻgʻinining uzunligini ifodalash uchun ikki yoki uch unli yonma-yon kelishi mumkin: *ooh*, *aaah*. Bunday misollarda unlilar alohida emas, uzun talaffuz qilinadi.

Unlilar tushishi hodisasi (Ünlü Düşmesi)

Turk tilida baʼzi ikki boʻgʻinli soʻzlarga egalik qoʻshimchasi qoʻshilganda oʻzak tarkibidagi unli tushishi mumkin: *ağız* – *ağzı*, *beniz* – *benzi*, *beyin* – *beynim*, *oğul* – *oğlum*, *ömür* – *ömrüm*, *fikir* – *fikri*, *akıl* – *aklı*, *kayın* – *kaynum*, *göğüs* – *göğsü* kabi. Yaʼni, ikkinchi boʻgʻinda tor unli boʻlgan ikki boʻgʻinli soʻzlarda unli bilan boshlanuvchi bir qoʻshimcha qoʻshilganda ikkinchi boʻgʻindagi tor unli, odatda, tushib qoladi: *alın* / *alrı*, *bağır* / *bağrı*, *beyin* / *beynimiz*, *boyun* / *boynu*, *burun* / *burnu*, *gönül* / *gönlü*, *karın* / *karnı*, *çevir* - / *çevril* - , *devir* - / *devril* - kabi.

Turk tilida qoʻsh unli yondosh kelmaydi. Shu bois qoʻshma soʻzlarda ikki soʻz unlisidan biri tushiriladi: *kahve altı* – *kahvaltı*, *ne için* – *niçin*, *ne asıl* – *nasıl*, *ne ise ne* – *nesne* kabi.

Oʻrta boʻgʻin unlisi tushishi mumkin: *burada* – *burda*, *ilerilemek* – *ilerlemek*, *yukarıda* – *yukarda*, *nerede* – *nerde* kabi.

Unli torayishi (Ünlü Daralması -a - ı, e - i)

Turk tilida /a/, /e/ unlilari bilan tugagan fe‘llar hozirgi zamon shaklida tuslanish chog‘ida oxirda turgan /a/ unlisi /ɪ/, /u/ ga, /e/ unlisi /i/, /ii/ ga aylanadi: *başlamak* (*başlıyor*); *kanamak* (*kanıyor*), *izlemek* (*izliyor*), *gözlemek* (*gözlüyor*) kabi.

Birdan ortiq bo‘g‘inli |a|, |e| unlilari bilan tugagan fe‘llar unli bilan boshlangan qo‘shimcha olganda bu fe‘llardagi |a|, |e| unlilarida og‘zaki nutqda faol bo‘lgan bir torayish (|ɪ| va |i| ga aylanish)ga moyillik kuzatiladi. Faqat og‘zaki nutqdagi |ɪ| va |i| unlilari yozuvda aks etmaydi: *başlayan*, *yaşayacak*, *atlayarak*, *saklayalı*, *almayalım*, *gelmeyen*, *izlemeyecek*, *gitmeyerek*, *besleyelim* kabi.

Buning aksi, negizi bir bo‘g‘indan iborat bo‘lgan *demek* va *yemek* fe‘llarida talaffuzdagi |i| unlisi yozuvga o‘tgan: *diyen*, *diyerek*, *diyecek*, *diyelim*, *diye*; *yiyecek*, *yiyecek*, *yiyecek*, *yiyecek*, *diye*, *yiyecek*, *yiyecek* kabi. Biroq *deyince*, *deyip* so‘zlaridagi |e| yozuvda o‘z holatini saqlab qolgan.

UNDOSH TOVUSHLAR (ÜNSÜZLER; SESSİZLER)

Tovush yo‘lida bir to‘siqqa uchrab chiquvchi tovushlarga undosh tovushlar deyiladi. Turk tilida 21 ta undosh bo‘lib, ular quyidagilardir: [b], [c], [ç], [d], [f], [g], [ğ], [h], [j], [k], [l], [m], [n], [p], [r], [s], [ş], [t], [v], [y], [z].

Alifboda har bir undosh tovush bir harf bilan belgilanadi.

Tovushlar talaffuz qilinish holatiga ko‘ra quyidagi turlarga ajratiladi:

1. lab undoshlari: [b], [f], [m], [p], [v];
2. Tish undoshlari: [c], [ç], [d], [j], [l], [n], [r], [s], [ş], [t], [z];
3. Tomoq undoshlari: [g], [ğ], [k], [y];
4. Bo‘g‘iz undoshlari: [h].

Undoshlar tovush paychalarining titrashiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi:

1. Tovush paychalarining titrashi natijasida paydo bo‘lgan undoshlarga *tonlu* (*yumuşak sedalı*), ya‘ni jarangli undoshlar deyiladi: [b], [c], [d], [g], [ğ], [j], [l], [m], [n], [r], [v], [y], [z]. Bu tovushlardan [l], [m], [n], [r] sonorlardir. Shuning uchun ularning jufti yo‘q.

2. Tovush paychalari titramasdan paydo bo'luvchi undoshlarga *tonsuz (sert, sedasiz)* undoshlar deyiladi. Bu o'zbekchadagi "jarangsizlar" atamasiga mos keladi: [ç], [f], [h], [k], [p], [s], [ş], [t].

Turkcha so'zlar oxirida yumshoq [b], [c], [d], [g] undoshlari kelmaydi. So'zlar bu tovushlarning jarangsiz (qattiq) juftlari bo'lgan [p], [ç], [t], [k] bilan tugaydi: *ip, sap, ağaç, saç, et, yurt* kabi.

Turk alifbosidagi <ğ> harfi, o'rniga qarab, ikki xil talaffuz qilinadi. Masalan, *doğan, doğu, doğum, doğal* kabi qattiq o'zakli so'zlarda [ğ] tovushi tushirilib, undan oldinda keluvchi unli cho'zibroq talaffuz qilinadi: *do:an, do:u, do:um, do:al* kabi. *değdi, değil, öğretmen, düğün, diğer* kabi yumshoq o'zakli so'zlarda esa o'zbekchadagi [y] kabi talaffuz etiladi. Buning boisi, tarixan bu so'zlar [ğ] bilan talaffuz etilgan. Keyinchalik, ularda tovush o'zgarishi ro'y berib [ğ] tovushi [y] ga aylangan. Ko'rinadiki, bu so'zlarning imlosida yozuv prinsipi amal qilmoqda.

Sof turkcha so'zlar oxirida *b, c, d, g* undoshlari kelmasa-da, ma'no farqini ta'kidlash uchun *ad, od, sac* kabi bir nechta so'zning yozilishida qoidaga rioya qilinmaydi: *ad* (isim), *at* (hayvan), *od* (ateş), *ot* (bitki), *sac* (yassı demir), *saç* (kıl) kabi.

Turk tilidagi *hac, sad, yad* kabi o'zlashgan so'zlardan tashqari boshqa tillardan turk tiliga kirgan so'zlarda ham ushbu qoidaga amal qilingan: *sebeb* (<sebeb), *kitap* (<kitab), *bent* (<bend), *cilt* (cild), *bant* (band), *etiit* (<etüd), *metot* (<metod), *standart* (standard), *ahenk* (aheng), *renk* (reng). Bunday o'zlashmalar unli bilan boshlanuvchi qo'shimcha olganda jaranglilashadi: *sebeb* (sebebi), *kitap* (kitabi) kabi.

Ba'zi o'zlashma so'zlarda jaranglilashish (*tonlulaşma, yumuşama*) ro'y bermaydi: *ahlak / ahlakın, cumhuriyet / cumhuriyete, hukuk / hukuku, sepet / sepeti, tank / tankı* kabi.

Birdan ortiq bo'g'inli so'zlar oxirida turgan *p, ç, t, k* undoshlari unli bilan boshlanuvchi qo'shimcha qo'shilganda jarangliga aylanadi: *b, c, d, g* (ğ): *ağaç / ağacı, kazanç / kazancı, geçit / geçidi, kanat / kanadı, balık / balığı, bıçak / bıçağı, çocuk / çocuğu, dudak / dudağı* kabi.

Bir bo'g'inli so'zlar oxiridagi *p, ç, t, k* undoshlari esa ikki unli orasida ko'pincha o'zgarmaydi: *at / atı, ek / eki, et / eti, göç / göçü, ip / ipi, üç / üçü, kök / kökü, saç / saçı, ok / oku* kabi.

Faqat bir bo‘g‘inli bo‘lgan holda oxiridagi undosh tovushi jaranglashuvchi so‘zlar ham bor: *but / budu, dip / dibi, gök / göge, kap / kabi, uç / ucu, kurt / kurdu, yurt / yurdu* kabi.

Turk tilida oxiri *-nk* bilan tugagan 6 ta so‘z oxiridagi /k/ tovushi unli bilan boshlangan qo‘shimcha qo‘shilishi natijasida /g/ ga aylanadi: *renk – rengi, denk – dengim, çelenk – çelengin, ahenk – ahengi, kepenk – kepengi, cenk - cengi* kabi.

Jarangsiz undosh bilan tugagan so‘zlardan keyin qo‘shiladigan undosh harfli qo‘shimchalar ham jarangsiz bo‘ladi: *at-tan, et-te, göç-tü, ip-ten, kök-ten, saç-ta, ok-tan* kabi. Lekin *üçgen, dörtgen* kabi yangi so‘zlar bu qoidaga bo‘ysunmaydi.

Metateza hodisasi (Ünsüz değişmesi)

Og‘zaki nutqda, xususan, shevalarda so‘z ichida undoshlarning o‘rin almashinuv hodisasi ro‘y beradi: *köprü > körpü, toprak > torpak, kibrit > kirbit, öğretmek (öğretmen) > örğetmek (örğetmen), yağmur > yağmur* kabi. Bulardan faqat *körpü, toprak, kibrit, öğretmek (öğretmen), yağmur* shakllari to‘g‘ri hisoblanadi.

So‘z boshida undoshlarning orttirilishi (Kelime başında ünsüz türemesi)

Turk tilida unli bilan boshlanuvchi so‘zlarning boshida bir undosh tovush orttirilishi mumkin. Bunday hodisa, asosan, shevalarda kuzatiladi: *avlu > havlu, inmek > yinmek, ayva > hayva* kabi. Ularning to‘g‘ri yozilish shakli: *avlu, inmek, ayva* dir.

Undoshlarning ikkilanish hodisasi (Ünsüz ikilenmesi)

Undoshlarning ikkilanish hodisasi turkiy tillarning deyarli barchasida, jumladan o‘zbek adabiy tilida ham mavjud. Masalan, qadimgi turkiy tildagi *iki* hozirgi o‘zbek tilida *ikki* ga aylangan. Yoki: *sekiz > sakkiz, yedi > yetti, elig > ellik (elli)*. Turk tilida bunday ikkilanish hodisasi, asosan, shevalarga xos. Adabiy tilda bir undosh bilan kelgan sonlar, shevada ikkilanadi: *yedi > yeddi, sekiz > sekkiz, dokuz > dokkuz* kabi. Bulardan faqat *sekiz, yedi, elli, dokuz* shakllari to‘g‘ri hisoblanadi.

Undoshlardagi jaranglilik va jarangsizlik uyg‘unligi

(Ünsüzlerde tonlu tonsuz uyumu)

Bu qonunga ko‘ra so‘z unli, sonor yoki jarangli undosh bilan tugasa, qo‘shimchanning birinchi undoshi ham jarangli bo‘ladi. Agar so‘z jarangsiz undosh bilan tugasa, qo‘shimchanning birinchi undoshi ham jarangsiz bo‘ladi: *yazıldı, göründü, kaldı, evde, üniversitede, gitti, yaptım, kaçtı, sokakta, uçakta* kabi.

Turkiy singarmonizm qonuniga muvofiq turk tilida o‘zakka qo‘shilayotgan qo‘shimcha ikkitadan sakkiztagacha variantga ega bo‘ladi. Masalan, *-ci* ot yasovchi qo‘shimcha *-ci, -çi, -cü, -cu, -çu, çü* variantlariga, *-li* sifat yasovchi qo‘shimcha *-lı, -lu, -lü* variantlariga, sifatning bo‘lishsiz shaklini yasovchi *-siz* qo‘shimchasi *-sız, -suz, -süz* variantlariga, egalik 1-shaxs, birlik shaklini yasovchi *-im* qo‘shimchasi esa *-ım, -üm, -um* variantlariga ega bo‘ladi. Bu yerda shuni ham ta’kidlash kerakki, keltirilgan misollardagi sakllarni bir qo‘shimchanning turli fonetik variantlari deb qaramoq kerak.

Jarangsiz undosh bilan tugagan so‘zlarga egalik, kelishik qo‘shimchalari qo‘shilganda oxirgi undosh o‘zgaradi: *ayak - ayağım, dayak - dayağı, bayrak - bayrağı, soluk - soluğu, çıkık - çıkığı, çiçek - çiçeği, kütük - kütüğü, dilek - dileği, delik - deliği, sinek - sineği, inek - ineği, köpük - köpüğü* kabi.

Ayrim so‘zlar tarkibidagi jarangli undosh o‘zidan avvalgi undosh ta’sirida jarangsizlashishi mumkin: *bayrak-dar > bayraktar, taraf-dar > taraftar, isbat > ispat* kabi.

Sonor *n* tovushi *m* ga aylanadi: *çarşanba > çarşamba, penbe > pembe, anbar > ambar, konşu > komşu* kabi.

Turk tilining shevalarida *|b|* tovushi */m/* ga aylanadi: *ben - men, binmek – minmek, boncuk – muncuk* kabi.

Ikki yoki undan ortiq bo‘g‘inli so‘zlarda keyingi bo‘g‘in unlisi avvalgi bo‘g‘in unlisiga moslashadi (assimilyatsiya): *çünkü > çünkü, açuk > açık, karşu > karşı* kabi. O‘zlashgan so‘zlar ham bu qonunga moslashishi mumkin: *mümkın > mümkün, müdir > müdür, müşkil > müşkül* kabi.

So‘z tarkibidagi lablanmagan unli lab unlisiga aylanishi mumkin: *nevbət > növbət, demir > demür, tavşan > dovşan, ev > öv* kabi.

Asl turkiy so‘zlarning boshida *c, ğ, l, r, v, z* tovushlari kelmaydi. Shuning uchun shevalarda bunday tovushlar bilan boshlangan o‘z-

lashma soʻzlar boshida bir unli orttiriladi: *ramazan - iramazan, limon - ilimon, recep – irecep* kabi.

Hozirgi turk adabiy tilida soʻz oxirida *b, c, d, ge, gi* kelmaydi. Shu bois soʻz oxiridagi jarangli undosh jarangsizlashadi: *kitab > kitap, inkilâb > inkilâp, derd > dert, Ahmed > Ahmet, ilac > ilaç, ad > at* kabi.

Oxiri *ç, ka, ke, p, t* undoshlari bilan tugagan soʻzlarga unli bilan boshlanuvchi qoʻshimchalar qoʻshilganda ularning soʻnggi undoshlari jaranglilashadi: *kitab - kitabı, kanat - kanadı, dolap - dolaba, ağaç - ağaca, ayak - ayağa, renk - rengi, denk - dengi, sevinç - sevinci, dört – dörder* kabi.

Asl turkiy soʻzlarda diftong (ikki unlining yonma-yon kelishi) hodisasi yoʻq. Lekin oʻzlashgan soʻzlarda bunday holat mavjud: *saat, kanaat, taarruz, şuur, şiir* kabi.

Turk tiliga arab va fors tillaridan oʻzlashgan soʻzlar tarkibidagi qoʻsh undoshlardan biri tushiriladi: *hammal > hamal, kassap > kasap, kerre > kere, amma > ama, hammam > hamam* kabi.

Asl turkiy soʻzlarning boshida juft undoshlar kelmaydi. Shuning uchun boshqa tillardan oʻzlashgan soʻzlar boshidagi qoʻsh undoshlar orasiga unli qoʻshib talaffuz etiladi: *gramer > giramer, tren > tiren, kral > kiral, Fransız > Fıransız, plan > pilan* kabi. Bulardan faqat *gramer, tren, kral, Fransız, plan* shakllari toʻgʻri hisoblanadi.

Oʻzlashgan soʻzlarda yuqoridagi hodisa keyingi boʻgʻinlarga nisbatan ham amal qilishi mumkin: *aks > akis, fikr > fikir, ilm > ilim, film > filim, zülf > zülüf, asl > asıl, asr > asır, şekl > şekil* kabi. Bulardan *akıl, şekil, akis, fikir, ilim, zülüf, asıl, asır* shakllari toʻgʻri hisoblanadi. Bunday soʻzlarga egalik qoʻshimchasi qoʻshilganda oxirgi boʻgʻin unlisi tushib qoladi: *akıl - aklı, şekil - şekli, fikir - fikrim, asıl – aslı* kabi.

Turk tilida *ç, ş, y* undoshlari taʼsirida qalin oʻzakli ayrim soʻzlar ingichkalashgan: *bıçmak>bıçmek, yaşıl>yeşil, yanı>yeni, yana>yine, şış>şiş* kabi.

Arab tilidan oʻzlashgan ayn yoki hamza bilan kelgan soʻzlar turk tilining tovush uygʻunligi qoidalariga moslashadi. Ular yozuvda aks etmasa-da, talaffuzda boshqa tovushlarga nisbatan choʻzibroq qoʻllanadi: *yani, mana, mimar, sanat, tesir, sürat* kabi.

Turkiy singarmonizm turk tilining temir qonunidir. Masalan, jarangsiz (*tonsuz, sert*) undosh bilan tugagan soʻzlarga qoʻshilgan qoʻshimchalar jarangsiz undosh bilan boshlanadi: *aç-tı, aş-çı, bak-tım, bas-kı, çiçek-ten, düş-kün, geç-ti, ipek-çi, süt-çü* kabi. Shunga qaramay, unda ayrim istisnolar bor. Chunonchi, ayrim qoʻshimchalar qattiq yoki yumshoq negizli soʻzlarga qoʻshilganda soʻz tabiatiga taʼsir etmaydi. Bu quyidagi qoʻshimchalardir:

-yor: *geliyor, oturuyor, veriyor, üşüyor*;

-daki, -deki: *evdeki, köydeki, buradaki, oradaki*;

-ki: *aşamki, dünkü, bugünkü*;

-ken: *giderken, gelirken, derken, üşürken, yaparken, otururken* kabi.

Asl turkiy soʻzlarda singarmonizm qonuniga muvofiq *ke, ge, ğe* (y) undoshlari faqat old qator *i, e* unililari bilan, *ka, gı, ğı h* undoshlari esa faqat orqa qator *ı, a* unililari bilan yondosh keladi. Lekin baʼzan oʻzlashgan soʻzlarda yumshoq *i, e* unililari *ka, gı, ğı* undoshlari bilan yondosh kelishi mumkin. Masalan: *hakikat, dakika, tenkit, musiki, baki, inkilâp, vakit, fakir, idrâk, helâk, ferahnâk* kabi.

Turkchada *d, c, b, ge, gı, ğ, j, v, z* undoshlari bilan *t, ç, p, ke, ka, hı, ş, f, s* undoshlari yonma-yon kela olmaydi. Shuning uchun soʻzlarga qoʻshimcha qoʻshilganda qoʻshimchaning bosh undoshi soʻz oxiridagi undoshga moslashadi: *kitap+da - kitapta, geç+di - geçti, yak+dı - yaktı, dik+di - dikti, buluş+du - buluştu, at+gı - atkı* kabi.

Turk tilining shevalaridagi /ng/ tovushi adabiy tilda /n/ ga aylanadi: *dengiz>deniz, yengi>yeni, tangrı>tanrı, sanga>sana, sening>senin, babang>baban* kabi.

Baʼzan shevalardagi /ng/ tovushi /n/ yoki /m/ ga aylanadi: *donguz>domuz, konşu>komşu* kabi.

Turk tilida baʼzan ikki soʻz birikib yangi soʻz yasalganda uning tarkibidagi unli qisqarishi mumkin: *pek iyi - peki, bu durur – budur, ne-asıl – nasıl* kabi.

hasta hane - hastane, posta hane - postane, pasta hane – pastane kabi.

Undosh orttirilishi (Ünsüz Türemesi - /y /, /v /)

Turk tilida ikki unli yonma-yon kelgan baʼzi oʻzlashmalarda vaqt oʻtishi bilan unililar orasida -y-, -v- tovushlari paydo boʻlgan: *fiyat*

(<fiat), zayıf (<zaif); konservatuvar (konservatuar), laboratuvar (laboratuar), repertuvar (repertuar), tuvalet (tualet) kabi.

Undosh tushishi (Ünsüz Düşmesi)

Türk tiliga arab tilidan kirgan va oxirida ikkita undosh bo'lgan so'zlarning boshlang'ich shaklida undoshlardan biri tushib qoladi: *hak* (<*hakk*), *his* (<*hiss*), *ret* (<*redd*), *zan* (<*zann*). Bunday so'zlarga unli bilan boshlanuvchi qo'shimcha qo'shilayotganda oxirida turgan undosh yonida yana bir undosh paydo bo'ladi (orttiriladi): *hak* \ *hakın* (var); *his* \ *hissediyorum*; *ret* \ *reddiyor*; *zan* \ *zannımca* kabi.

n > m undoshlarining almashinishi (n>m değişmesi)

Türk tilida ba'zi so'zlardagi **[b]** undoshidan oldin keluvchi **[n]** undoshi **[m]** ga aylanadi: *saklambaç* (<*saklanbaç*), *ambar* (<*anbar*), *cambaz* (<*canbaz*), *çember* (<*çenber*), *memba* (<*menba*), *tambur* (<*tanbur*) va b.

Tuzatish, yumshatish, cho'ziqlik belgisi (Düzelme, İnceltme ve Uzatma İşareti)

Türk tili imlosida tuzatish, yumshatish, cho'ziqlik belgisi (*düzelme*, *inceltme* ve *uzatma işareti*) ham qo'llaniladi. Bu belgilar, asosan, arab va fors tillaridan türk tiliga o'zlashgan so'zlardagi /a/, /i/ va /u/ harflari ustiga qo'yiladi (*â, î, û*) va u tovushlarning ingichka yoki cho'ziq talaffuz etilishini ta'minlaydi: *hâlâ*, *kâdir*, *tarihî*, *dergâh*, *dükkân* kabi. Boshqacha aytganda, tuzatish belgisi "... türkchaga o'zlashgan so'zlarda qalin unli bilan birga qo'llaniluvchi /k/, /g/, /l/ undoshlarini ingichka talaffuz qilinishi, so'zlardagi unli larni ta'kidlash yoki yozilishi bir xil, faqat ma'nolari farqli bo'lgan so'zlarni bir-biridan ajratish uchun qo'llaniluvchi belgi"¹¹.

Tuzatish belgisi ayrim eski turkiy matnlardagi so'zlarni yangi yozuvga aylantirishda ham keng qo'llaniladi.

1. Yozilishi bir xil, ma'no va talaffuzi turlicha bo'lgan so'zlarni ajratish uchun talaffuzi uzun bo'lgan unli ustiga tuzatish belgisi qo'yiladi: *adem* (*yokluk*), *âdem* (*insan*); *adet* (*sayı*), *âdet* (*gelenek*); *alem* (*bayrak*), *âlem* (*dünya*); *hala* (*babanın kız kardeşi*), *halâ*

¹¹ Korkmaz Z., Gramer Terimleri Sözlüğü, Türk Dil Kurumu Yayınları, Genişletilmiş Üçüncü Baskı: Ankara, 2007, s. 76-77.

(bo'shliq), *hâlâ* (*henüz, daha*); *şura* (*şu yer*), *şurâ* (*danişma kurulu*); *aşık* (*suyak*), *âşık* (*birini seven*) kabi. Shuni ta'kidlash joizki, turk tilida *kâtil* (*katl - öldürme*) va *kâdir* (*kadr - değer*) so'zlarining aralashib ketish holatlari uchrab tursa-da, *kâtil* (*ka:til-öldüren*) va *kâdir* (*ka:dir-güçlü*) so'zlari ko'pincha tuzatish belgisi (^) qo'ymasdan yoziladi.

2. Arab va fors tillaridan turk tiliga o'zlashgan qator so'z va qo'shimchalar, atoqli otlarda uchraydigan ingichka [*d*], [*k*] undoshlaridan keyin kelgan [*a*] va [*u*] unlilari ustiga ham tuzatish belgilari qo'yiladi: *dergâh*, *gâvur*, *ordugâh*, *yadigâr*, *Nigâr*, *dükkân*, *hikâye*, *kâğıt*, *mekân*, *sükût*, *kâr*, *telâş* kabi. Atoqli otlar va ba'zi toponimlarda [l] undoshining ingichka ekanligini ko'rsatish uchun, [l]dan keyin keluvchi [*a*] va [*u*] unlilari ustiga ham tuzatish belgisi (^) qo'yiladi: *Hâluk*, *Lâle*, *Nalân*, *Elâzığ*, *İslâhiye*, *ahlâk*, *evlât*, *billûr*, *ilâç* kabi.

3. Tuzatish belgisi nisbatni bildiruvchi /i/ qo'shimchasining tushum kelishigi va egalik III shaxs qo'shimchalari bilan aralashtirib yuborilishini oldini olish uchun qo'llanadi: (*Türk*) *askeri* va *askerî* (*okul*), (*fizik*) *ilmi* va *ilmî* (*araştırmalar*), (*İslam*) *dini* va *dinî* (*okul*), (*kardeşimin*) *resmi* va *resmî* (*kuruluş*), *iktisadî* (*durum*), *medenî* (*hâl*), *edebî* (*eser*) kabi.

Nisbat /i/ olgan so'zlarga turkcha yasovchi va turlanish qo'shimchalari qo'shilganda tuzatish belgilari olgan qo'shimchalar o'z holicha qoladi: *ciddîleşmek*, *millîleşmek*, *resmîleştmek*, *ilmîlik* kabi.

G'arbiy Yevropa tillaridan turk tiliga kirgan ba'zi so'zlarda ham [l] undoshining ingichka ekanligini ko'rsatish uchun, [l]dan keyin keluvchi [*a*] va [*u*] unlilari ustiga ham tuzatish belgisi (^) qo'yiladi: *klâsik*, *lâhana*, *lâmba*, *lâtin*, *plâj*, *plâk* kabi. Ammo g'arb tillarida tuzatish belgisi (^) qo'llanilmaganligi uchun turk tiliga o'zlashgan bunday so'zlar tuzatish belgisi qo'yilmasdan yozilishi ham mumkin (*klasik*, *lahana*, *lamba*, *latin*, *plaj*) va bu xato hisoblanmaydi.

Farqli yozilish holatlari (*Değişik Yazılışlar*)

Turk tilida "umumiy so'zlashuv"da deyarli bir xil talaffuz qilinsa-da, farqli yoziladigan *döğmek* – *dövmek*, *öğmek* – *övmek*, *oğmak* – *ovmak*, *söğmek* – *sövmek* singari so'zlar bor. Ularda /ğ/ o'rniga /v/ shakli har tomonlama uyg'un ko'riladi. Imlo nuqtai nazari-

dan to‘g‘ri hisoblangani *dövmek, övmek, ovmak, sövmek* shakllari hisoblanadi.

BOSH HARFLAR IMLOSI (BÜYÜK HARFLERİN YAZILIŞI)

Turk tilining yozuv qoidalariga muvofiq bosh harflar, asosan, quyidagi o‘rinlarda qo‘llaniladi:

Gap katta harf bilan boshlanadi: *Hayatta en hakiki mürşit ilimdir. Ak akça kara gün içindir.* Jumla ichidagi ko‘chirma gap katta harf bilan boshlanadi: *Orhon kitabesinde şöyle yazılıyor: "Ben hakan olunca gündüz oturmam, gece uyumam."* Nuqta, so‘roq va undov belgilaridan keyin boshlanuvchi gaplardan keyingi gap katta harf bilan boshlanadi.

She‘r misralari katta harf bilan boshlanadi:

Halk içinde muteber bir nesne yok devlet gibi;

Olmaya devlet cihanda bir nefes sıhhat gibi (Muhibbi).

Atoqli otlar, taxalluslar katta harf bilan yoziladi: *Mevlana Lutfi, Alişir Nevai, Yunus Emre, Zahiriddin Muhammet Babur, Abdullah Kadiri* kabi.

Kishi otlaridan avval kelgan hurmatni bildiruvchi so‘zlar, unvonlar katta harf bilan yoziladi: *Prof. Dr. Kemal Eraslan, Doktor Behcet Üz, Zeynep Hanım, Hamdi Bey* va b.

Davlat, mamlakat nomlari katta harf bilan yoziladi: *Özbekistan Cumhuriyeti, Türkiye Cumhuriyeti, Rusya Federasyonu, Amerika Birleşik Devletleri* kabi.

Xalq otlari, millat, urug‘, til, sheva nomlari, din va mazhab nomlari, mifologik tushunchalarning otlari katta harf bilan yoziladi: *Özbek, Türk, Rus, Alman, İngiliz; Özbekçe, Türkçe, Rusça, Almanca, İngilizce; Müslüman, Hristiyan, Budist; Hanefilik, Katoliklik* kabi.

Turk tilida din va mifologiyaga oid ba‘zi nom va atamalar katta harf bilan yoziladi: *Allah, Tanrı, Cebrael, Zeus, Kibele* kabi. Biroq *Tanrı* so‘zi atoqli ot sifatida qo‘llanilmaganda kichik harf bilan (*tanrı*) yoziladi: *Eski Yunan tanrıları*. Ba‘zi diniy atamalarning kichik harf bilan boshlanishi turk tilida an‘anaviylashgan. Bular sirasiga *cennet*,

cehennem, uçmak, tamu, peygamber, sırat köprüsü kabi soʻz va soʻz birikmalari kiradi.

Tashkilot, muassasa otlari, vazirlik, boʻlinma otlari katta harf bilan yoziladi: *İstanbul Üniversitesi Edebiyat Fakültesi, Türk Dil Kurumu, T.C. Milli Eğitim Bakanlığı, Yüksek Öğretim Kurulu* va b.

Mahalla, maydon, koʻcha, koʻshk, koʻprik, maqbara otlari katta harf bilan yoziladi: *Sebzar Mahallesi, Bağımsızlık Meydanı, Nevai Caddesi, Boğaziçi Köprüsü, Atatürk Anıtı* kabi.

Gazeta, jurnal, kitob otlari, asar otlari katta harf bilan yoziladi: *Türk Dili dergisi, Çalıkuşu romanı, Alpâmiş destanı* va b. Kitob, asarlarning nomida har soʻzning bosh harfi katta yoziladi: *Memleket Hikâyeleri, Resmi Gazete, Genç Kalemler, Yaprak Dökümü, Küçük Ağa* kabi. Lekin bunday murakkab nom (sarlavha)lar tarkibidagi yordamchi soʻzlar kichik harf bilan yoziladi: *Leyla ile Mecnun, Suç ve Ceza, Mavi ve Siyah* kabi.

Tarixiy voqea, asr va davr otlari katta harf bilan yoziladi: *İkinci Dünya Savaşı, Cialı Taş Devri, Yükselme Devri, İlk Çağ* kabi.

Lavha yozuvlari katta harf bilan yoziladi: *Giriş, Çıkış, Müdür, Başkan* va b. *Otobüs durağı, Baş hekim, Uluslararası telefon, Tren istasyonu* kabi birikma shaklidagi lavhalarining birinchi soʻzi bosh harf bilan yoziladi.

Lavhalarining ilk soʻzi raqam bilan yozilgan gaplarda faqat raqamlargina katta yoziladi: *III kat, IV sınıf, I blok* va b.

Atoqli otlardan yasalgan otlar, feʼllar (uning noaniq shakllari) va sifatlar katta harf bilan yoziladi: *Türklük, Türkölöli, Bursa* va b.

Abla, ağabey, dayı, enişte, teyze, hala kabi qarindoshlikni bildiruvchi atamalar kichik harflar bilan yoziladi: *Emine abla, Canan teyze, Ayşe nine, Kemal dayı, Ömer baba, Nazife anne, Selim amca, Murat enişte (Ne zaman döneceksin abla. Eşegin yoksa, enişten de mi yok?)* kabi.

Qarindoshlikni bildiruvchi atamalar kishi ismidan oldin kelganda ular taxallus kabi katta harflar bilan yoziladi: *Dayı Kemal, Hala Sultan, Teyze Ayşe, Baba Ömer, Amca Murat* kabi.

Baʼzi tarixiy shaxslar ismidan keyin kelgan qarindoshlikni bildiruvchi atamalar laqab yoki taxallus oʻrnida kelib bir unvon kabi qoʻllanganda katta harflar bilan yoziladi: *Gül Baba, Susuz Dede, Adile Hala, Gülsüm Bacı, Sultan Ana* kabi.

Rasmiy yozuvlardagi murojaat (xitob) soʻzlar va ism-familiyalar, taxalluslarining bosh harflari katta yoziladi: *Sayın Başkan, Sayın Rektör, Sayın Vali, Sayın Profesör* kabi.

Ikki nuqtadan keyingi gap katta harf bilan boshlanadi:

Menfaat sandalyeye benzer: Başında taşırsan seni küçültür, ayağının altına alırsan yükseltir (Cenap Şahabettin).

Biroq ikki nuqtadan keyin gap emas, soʻz yoki soʻz birikmalari kelganda ular kichik harf bilan boshlanadi:

Bu eskiliği siz de çok evde görmüşsünüzdür: duvarlarda çiviler, çivi yerleri, lekeler... (Memduh Şevket Esenal)

Ikki nuqtadan keyin qoʻshtirnoq ichiga olingan koʻchirma gaplar katta harf bilan yoziladi: *Bir gün bana: “Ben bir polisim.”* gibi bir şey söylemişti.

Fan-texnika sohalariga doir baʼzi atamalar, sayyoralar va yulduz nomlarining bosh harfi katta yoziladi: *Merkür, Neptün, Plüton, Halley, Dünya, Yer, Ay, Güneş* kabi. Biroq bulardan baʼzilari ilmiy atama va sayyora nomi sifatida qoʻllanmaganda kichik harflar bilan yoziladi: *dünya, yer, ay, güneş* kabi.

Hayvonlarga beriladigan atqli otlar katta harflar bilan yoziladi: *Sarıköz, Fino, Karabaş, Pamuk, Minnoş, Tekir* kabi.

Toponimlar (mintaqa, qitʼa, viloyat, tuman, qishloq, koʻcha nomlari) katta harf bilan yoziladi: *Taşkent, Orta Asya, Afrika, Avrupa, Anadolu, İç Anadolu, İstanbul, Bahçelievler, Ziya Gökalp Caddesi* kabi.

Doğu va Batı soʻzlari tomon (yoʻnalish)ni bildirganda kichik harf bilan yoziladi: *Türkiye’nin doğusu, ülkenin batısı* kabi. Doğu va Batı soʻzlari tafakkur, hayot tarsi, siyosat va boshqa maʼnolarni ifodalab kelganda esa katta harf bilan yoziladi: *Batı medeniyeti, Doğu felsefesi* kabi.

SOʻZ VA QOʻSHIMChALAR IMLOSI (Kelime ve Eklerin Yazımı)

De, da bogʻlovchisining yozilishi

De (da) bogʻlovchisi har doim alohida yoziladi va oʻzidan oldin kelgan soʻzning oxirgi unlisiga koʻra unli singarmoniyasi qonuniga amal qilgan holda qoʻllaniladi: *Kızı da geldi, gelini de. Oğluna da,*

kızına **da**, yeğenine **de** bir şey söylemedi. Alohida yoziladigan **de** (**da**) bog'lovchisi hech qachon **-te** (**-ta**) shaklida yozilmaydi. **Ya** so'zi bilan kelgan **da** bog'lovchisi har doim ajratib yoziladi: *Ahmet ya da sen yapacaksın bu işi. De* (**da**) bog'lovchisining o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi bo'lgan **-de** (**-da**, **-te**, **-ta**) bilan hech qanday aloqasi yo'q.

Ki bog'lovchisining yozilishi

Turk tilida **“ki”** (**ki** ilinti zamiri - bog'lovchi olmosh) vositasida qo'shma gaplar yasaladi. Alohida yoziluvchi **ki** bog'lovchisi sodda gaplar orasida izoh, ketma-ketlik, qiyoslash, sabab, natija, maqsad kabi ma'nolar doirasida munosabatlar o'rnatilishini ta'minlaydi: *Kuzenim o kadar tuhaf bir şaşkınlıkla bakıyordu ki, kendimi tutamadım, gülmeye başladım*¹².

Bosh gapning boshda, ikkinchi darajali (ergash) gaplarning bosh gapdan keyin kelishi turk tili sintaksisiga xos tartib emas. Turk tilida bunday tartib fors tili ta'sirida yuzaga kelgan. Chunki **ki** bog'lovchisi vositasida yasalgan qo'shma gaplarda, asosan, bosh gap oldinda (**ki** bog'lovchi olmoshi bosh gapning oxirida, kesimdan keyin keladi), ergash gap undan keyin keladi. Ergash gap bosh gapda ifodalangan fikrni izohlaydi: *İhtiyar adam kapıyı açıp içeriye bakmış ki, kimse yok.*

Ba'zan **ki** bog'lovchili qo'shma gaplarda bosh gapning oxirida kelishi ham mumkin va bu turk tili sintaksisi qoidalariga mos holat hisoblanadi: *Heyecan onu o hale getirmişti ki, bu sefer az kalsa kalbi duracaktı. Öyle bir şey söyledi ki, dünden beri kendime gelemiyorum.*

Ki bog'lovchi olmoshi vositasida yasalgan qo'shma gaplar ham yozma, ham og'zaki nutqda juda faol qo'llanadi: *Kitaplar için sizden af dilemeye lüzum görmeyeceğim. Çünkü fondanlar ispat etmiştir ki, kitaplar zaten bir şakadan başka bir şey değildi*¹³. *Akıllı ol ki, deli sansınlar* (Atasözü).

Ki bog'lovchi olmoshi qo'shma gapning mazmuniga ta'sir etmaydi. Bunday gaplar shakliga ko'ra bog'lovchisiz qo'shma gaplarga o'xshaydi: *Bir arkadaşım var, çok yaramaz. = Bir arkadaşım var ki, çok yaramaz.*

¹² Güntekin R.N., Çalıkuşu, roman, İstanbul, 1995., s. 52

¹³ Güntekin R.N., Çalıkuşu, roman, İstanbul, 1995., s. 50

Ki bog‘lovchili qo‘shma gaplar hozirgi zamon turk tili sintaksisi qoidalariga uyg‘un tuziluvchi gaplardan ko‘ra faolroq qo‘llanadi: *Beni düşündüren bir şey söyledi.* = *Bir şey söyledi ki, beni düşündürdü.* *Evi senin beğeneceğin şekilde donattım.* = *Evi öyle donattım ki, beğeneceksin.* **Ki** olmoshi turlanmaydi va o‘zgarmaydi. **Ki** olmoshi qo‘shma gaplarda ega, vositasiz to‘ldiruvchi, vositali to‘ldiruvchi vazifasida kelgan so‘zlarning yoki ularning vazifasini bajarib kelgan birikmalarning o‘rnini qoplaydi: *Bir müdürümüz vardı ki, herkesi tanırdı.* *Bir kız olmuş ki, görmelisin.* *Bir söz verdim ki, artık geri dönemem.*

Ki qoshimchasining yozilishi. Turk tilida **ki** bog‘lovchisi so‘zga qoshib ham yoziladi: *hâlbuki, oysaki, sanki, mâdemki* va h. Bunga *öteki, beriki, şimdiki, buradaki, bizdeki* kabi oidlik shakllari ham kiradi: *öteki (iş), beriki (ev)* kabi.

Ki qo‘shimchasi unli uyg‘unligi qoidasiga bo‘ysunmaydi: *akşamki, yarinki, duvardaki, Turgut‘unki, bendeki, yazıdaki* kabi. Faqat ba‘zi so‘zlarda bu qo‘shimcha lab uyg‘unligi (kichik unli uyg‘unligi) qoidasiga bo‘ysunadi: *bugünkü, dünkü* kabi.

«İkkilangan bog‘lovchilar»ning yozilishi

Turk tilida *karşılaştırma bağlaçları* yoki *yinelenen bağlaçlar* (ikkilangan (takrorlanuvchi) bog‘lovchilar) ikki yoki undan ortiq sodda gapni, xususan, qarama-qarshi ma‘nodagi gaplarni bir-biriga bog‘lab, gap ichida juft-juft bo‘lib qo‘llanadi. Qiyoslovchi bog‘lovchilar quyidagilardir: *ya ... , ya ... (ya ...; ya...; ya ...), ya ... , ya da; hem ... , hem ... (hem ..., hem..., hem de ...); ne ... , ne ... (ne ..., ne..., ne de ...); ... da (de), ... da (de); gerek..., gerek ... (gerekse ...); ister..., ister ... (isterse ...); olsun..., olsun ...: Ya gelecek, ya gelmeyecek. Ya bu deveyi güderiz, ya da bu diyardan gideriz. Hem okuyor, hem yazıyor (Hem okuyor, hem yazıyor, hem de dinliyor). O ne okuyor, ne çalışıyor, evde oturuyor. Seni de, beni de insan saymıyor, Gerek uçakla, gerek(se) otobüsle gideceğim. İster inan, ister inanma. Zengin olsun, fakir olsun, hepimiz aynı şekilde yaratılmışızdır* kabi.

Qiyoslovchi bog‘lovchilar takrorlanib kelganda, undan keyin **da (de)** kelishi ham mumkin: *... ya da, ...hem de, ...ne de* va h.

Shuningdek, qiyoslovchi bog‘lovchilar sirasiga quyidagi shakllarni ham kiritish mumkin: *bir ... bir ..., ha ... ha ..., bazı ...*

*bazı, kimi ... kimi..., bazen ... bazen ... kabi. Masalan: Kadın bir güler bir ağlardı. **Bazen** getirir, **bazen** de geri götürürdü. Güneş **kah** bulutlar arasından görünür, **kah** kaybolur kabi. O **kah** bizden yana, **kah** başkalarından yanaydı kabi.*

Ta'kidlash kerakki, **ne ... ne** bog'lovchisi bo'lishsizlik ifoda etgani uchun u bilan birga qo'llangan fe'l, asosan, bo'lishli bo'ladi: **ne** beni, **ne** seni *düşünüyor*. **Ne** Türkçe biliyor, **ne** Özbekçe... kabi.

Mi (mi, mü, mu) so'roq yuklamasining yozilishi **(Soru eki mi, mi, mü, mu)**

So'roq yuklamasi (*soru eki*) turk tilida mustaqil so'zlardan so'roq shakllari yasashga xizmat qiladi. Fe'ning so'roq shakli ham bir qo'shimcha fe'l shakli hisoblanadi. So'roq yuklamasi otlar turkumiga kiruvchi so'zlar uchun ham, fe'llar uchun ham bir xil: *mi, mi, mü, mu*. So'roq yuklamasi, odatda, fe'llarning tuslanishida fe'l tuslov qo'shimchalaridan keyin, olmosh aslli shaxs-son qo'shimchalaridan esa oldin keladi: *gelir mi-y-im?, gelecek mi-sin?, gelmeli mi-y-iz?, gelsem mi?, geleyim mi?, geldin mi?* kabi.

So'roq yuklamasi imlo qoidalariga ko'ra alohida yozilgani uchun fe'l tuslanish shakllarini ham ikkiga ajratib turadi: *görecek misiniz? gitmeli miyiz?* kabi. So'roq yuklamasi har doim urg'usiz bo'lib, so'z urg'usi undan oldingi bo'g'inga tushadi. So'roq shakllari alohida yozilgani uchun bunda ham so'roq qo'shimchasidan keyin singarmoniya qonuniga ko'ra qo'shilgan *imek* fe'li ham yaxlit shaklda alohida yoziladi: *güzel miyim?, hasta mısın?, deli midir?, boş musunuz?, üzgün müydü?, haklı mıydık?, ucuz muymuş?, yalnız mıymışlar?, yok muymuşum?* kabi.

Infinitivning yozilishi (Mastarların Yazılışı)

-ma,-me masdar qo'shimchasini olgan fe'l shakllaridan keyin -a, -e, -i, -ı qo'shimchalarining -ya, -ye, -yi, -yı shakllari qo'llaniladi: *anlama-ya, dinleme-ye, gezme-yi, yapma-yı* kabi.

-mak,-mek masdar qo'shimchasini olgan fe'l shakllaridan keyin -a, -e, -i, -ı qo'shimchalaridan biri kelsa, -k yumshaydi: *anlamak – anlama-ğ-a, dinlemek – dinleme-ğ-e, gezmek – gezme-ğ-i, yapmak – yapma-ğ-ı* kabi. Lekin bu shakl nutqda deyarli qo'llanilmay qo'ygan.

Ba'zi badiiy asarlardagina uchraydi. Uning o'rniga *-ma, -me* masdar qo'shimchasi (*-ya, -ye, -yi, -y* shakllari) qo'llaniladi.

-yor qo'shimchasining yozilishi (-yor ekinin yazılışı)

-yor fe'lining hozirgi zamon qo'shimchasi unli uyg'unligi qoidasiga bo'ysunmaydi. Tuslanayotgan fe'l tarkibidagi unli tovushlar yumshoq bo'lsa ham qo'shilayotgan qo'shimcha (*-yor*)ning unlisi qal'inligi o'zgarishsiz qolaveradi: *gel-i-yor, al-i-yor, gör-ü-yor ol-u-yor, söy-l-ü-yor* kabi.

-yor hozirgi zamon qo'shimchasidan oldingi unli harf fe'l negizidagi unliga ko'ra unli uyg'unligi qoidasiga asosan qoyiladi: *sev-i-yor bat-i-yor kur-u-yor düş-ün-ü-yor söy-l-ü-yor* kabi.

Fe'lining o'zagi yoki negizi unli bilan tugagan bo'lsa, *-yor* qo'shimchasidan oldin bog'lovchi unli qo'yilmaydi. Faqat so'z oxiridagi /a/ unlisi /ı/ ga, /e/ unlisi /i/ yoki /ü/ ga aylanadi: *baş-l-i-yor* (*baş-l-a-yor* emas), *bekl-i-yor* (*bekl-e-yor* emas), *söyl-ü-yor* (*söyl-e-yor* emas), *ok-u-yor, yür-ü-yor* (/u/ va /ü/ o'zgarishsiz qoladi) kabi.

imek yordamchi fe'lining yozilishi (imek fiilinin yazılışı)

-imek fe'li yoki «*-i-* fe'li» turk tilidagi asosiy yordamchi fe'l hisoblanib, eski turkchada *er-mek*, usmonli turkchasida *i-mek*, yangi turkchada esa *-mek* shakliga kelib qolgan, o'zagi «erib», faqat tuslanish qo'shimchasi shaklida saqlangan *-imek* fe'li ma'nosiga ko'ra holatni ifodalaydi va, asosan, ot turkumiga kiruvchi so'zlar bilan bilan birga qo'llanadi.

Ushbu fe'lining o'zagi hali ham og'zaki va yozma nutqda ba'zi – ba'zida *i-di, i-miş, i-se* kabi fe'l negizlarida namoyon bo'lgani uchun uni *i-mek* fe'li deb atashadi. U fe'llarga qo'shilganda qo'shma fe'l shakllari yasaydi: *bilmiş idi, gelse idi* kabi. *-imek* fe'li otlar bilan qo'llanilganda ularni fe'llashtiradi: *güzel idi, iyi imiş* va hok.

3-shaxsda eski turkchadan buyon *ermek* fe'liga parallel bir fe'l bo'lish qobiliyatini namoyon etgan *turmak* fe'li o'rin olgan: *tur-ur > dur-ur > -dir tur-ur-lar > dur-ur-lar > -dirler*. Bu demak, ushbu qo'shimchada fe'l negizidan bir alomat qolgan. Faqat quyida ta'kidlanajagi kabi, ot-kesimli gaplarda kesim hech qanday qo'shimcha olmasligi mumkin bo'lgani uchun bu shaklning birlik 3-

shaxsi nol qo‘shimcha, ko‘pligi esa **-ler** ko‘plik qo‘shimchasi bilan yasalgan deb hisoblash mumkin.

imek fe‘li shaklining yaqin o‘tgan zamon ko‘rinishi *idim, idin, idi, idik, idiniz, idiler* dir. Amalda qo‘llanayotganda uning o‘zagi tushib qolishi va qo‘shimcha olishi mumkin: *güzeldi (güzel idi), korkunçtu (korkunç idi), hastaydı (hasta idi)* kabi.

So‘roq qo‘shimchasi fe‘llarga so‘roq shakli beruvchi qo‘shimchadir. *-imek* fe‘lining so‘roq shakli fe‘lni *mi* so‘roq qo‘shimchasiga qo‘shish yo‘li bilan yasaladi. Shu tarzda fe‘lning so‘roq shakli ham bir qo‘shimcha fe‘l shaklini oladi. Bu qo‘shimcha otlar uchun ham fe‘llar uchun ham bir xil: *mi, mı, mü, mu*. So‘roq qo‘shimchasi odatda fe‘llarning tuslanishida fe‘l tuslov qo‘shimchalaridan keyin, olmosh aslli shaxs-son qo‘shimchalaridan esa oldin keladi: *gelir miyim?, gelecek misin?, gelmeli miyiz?, gelsem mi?, geleyim mi?, geldin mi?* kabi.

-imek fe‘lining shart shakli alohida ko‘rinishga ega. Shart shaklining o‘ta kam qo‘llanuvchi so‘roq ko‘rinishida fe‘l qo‘shimchasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri otga qo‘shiladi. *mi* so‘roq qo‘shimchasi undan keyin keladi va alohida yoziladi: *yorgunsam mı?, işsizsen mi?, bozuxsa mı?, memnunsak mı?* va h.

i-mek fe‘lining shart mayli shakli qo‘yidagicha: *Bilsem bırakmazdım, biraz dinlenseniz, yorgunsan yat, ucuzsa alırsız, hazırşak başlayalım* kabi.

Murakkab tuslanishda ko‘p hollarda *-i* o‘zagi tushiriladi, lekin ba‘zan bu o‘zak tushmagan hollarga ham duch kelish mumkin: *gelmiş idi, geldi ise, geliyor imiş* kabi.

Hozirgi paytda *-imek* fe‘lining qo‘shimcha olish doirasi kengayib borish bilan birga unli uyg‘unligi qoidasiga ham amal qilinmoqda:

a) unli bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilayotganda *-i* harfi tushib qoladi va uning o‘rniga ayiruvchi *-y-* keladi: *satıcıydı, birincisiydi, sonuncusuydu, görücüydük* kabi.

b) undosh bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilayotganda *-i* harfi tushib qoladi: *kalemdi, doktordu, katırmış* kabi.

İle bog‘lovchisining qo‘shimcha sifatida yozilishi (İle bağlacının ek olarak yazılışı)

O‘zbek tilidagi *bilan* so‘zi turkchada *ile* yordamchi so‘zi va *-la/ -le*, unli bilan tugagan so‘zlarga *-yla/ -yle* shaklidagi qo‘shimcha vositasida beriladi. Albatta, hozirgi turk tilida *-la/ -le*, *-yla/ -yle* shakli *ile* yordamchisidan ko‘ra faol va u qo‘shimcha sifatida unli uyg‘unligi qoidasiga muvofiq o‘zidan avvalgi so‘zga qo‘shib yoziladi. *İle* bog‘lovchisining iste‘mol doirasi nisbatan cheklangan. U ko‘proq badiiy uslubda amal qiladi. U doimo o‘zi bog‘langan so‘zdan ajratib yoziladi. Masalan: *balta ile (baltayla)*, *çevre ile (çevreyle)*, *Günder ile (Günderle)*, *Barış ile (Barışla)* kabi. *İle* yordamchi so‘zi 3-shaxs egalik shaklidan keyin kelganda ham /i/ tushirilib, *-la/ -le* ga aylanadi va *-y-* orttirilib, *-yla/ -yle* shaklida so‘zga qo‘shib yoziladi: *arkadaşıyla*, *annesiyile*, *sütüyle* kabi.

Turk tilida *dolay*, *dolayı* so‘zlari negizida yasalgan *dolayisiyla* so‘zini turlicha yozishga odatlanilgan. Bular: *dolayisiyle*, *dolayısı ile*, *dolayısıyla* shakllaridir. Lekin ushbu yordamchi so‘zning eng to‘g‘ri yozuv shakli *dolayisiyla* hisoblanadi.

Kuchaytiruv sifatlarining yozilishi (pekiştirme sıfatlarının yazılışı)

Kuchaytiruv sifatleri turk tilshunosligida *berkitme sıfatları* yoki *pekiştirme sıfatları* deyiladi. Shaxs, predmet yoki voqea – hodisaning belgisini yuqori darajada ko‘rsatuvchi sifatlariga kuchaytiruv sifatleri deyiladi. Turk tilshunosligida sifatning bunday shakli “o‘xshash bo‘g‘in ishtirokida” (*benzer hece katkısı*) yasaladi. Bunday sifatlar so‘zning birinchi bo‘g‘ini olinib, bo‘g‘inning oxiriga *-m-*, *-p-*, *-s-*, *-r-* undoshlaridan biri qo‘shilib, so‘zning boshiga keltirish yo‘li bilan yasaladi:

açık = a+**p**+*açık* (*apaçık* – *ochiq-oshkora*; *lang ochiq*);

kara = ka+**p**+*kara* (*kapkara* – *qop-qora*);

temiz = te+**r**+*temiz* (*tertemiz* – *top-toza*);

yeşil = ye+**m**+*yeşil* (*yemyeşil* – *yam-yashil*);

katı = ka+**s**+*katı* (*kaskatı* – *juda qattiq*) kabi.

Shu tarzda birinchi bo‘g‘inda old tovushlarning takrorlanishi ta‘minlanadi va natijada bir old qo‘shimcha paydo bo‘lib, sifatning kuchaytiruv shakli yuzaga keladi. Ba‘zi sifatlarda old qo‘shimchadan keyin tovush oqishini ta‘minlovchi bir tekis, ochiq unli paydo qilinib,

ikkinchi bo'g'in yasaladi: *dübedüz* (tep-teki), *sapasağlam* (soppa-sog'), *yapayalnız* (o'ta yolg'iz), *güpegundüz* (kuppa-kunduz) kabi.

Sifatlarni to'la takrorlash yo'li bilan ham kuchaytirish mumkin. Bunday shakllar sifatning ma'nosini kuchaytirib, otlar bilan birikadi: *kara kara gözler, küçük küçük odalar, mahmur mahmur bakışlar, iri iri meyveler* kabi. Shuningdek, kuchaytiruv sifatlari otlarni takrorlash yo'li bilan ham yasaladi: *takım takım elbiseler, kucak kucak hediyeler, çeşit çeşit yolcular, öbek öbek çalılar, yer yer lekeler* kabi. Bunday shakllar ko'pincha ravish o'rnida ham ishlatilib, fe'llardan oldin kelishi mumkin: *adım adım izlemek, kârış kârış gezmek* kabi.

Egalik kategoriyasidagi istisno holatlar **(İyelik Eklerinde İstina Durumlar)**

Egalik qo'shimchalari predmetning uch shaxsdan biriga tegishliligini ifodalaydi. Ot yoki olmoshni otga bog'lovchi, ular orasida munosabat o'rnatuvchi qo'shimchalardir. Otga egalik qo'shimchasi qo'shilayotganda turkiy singarmonizm qonuniga amal qilinadi. Hozirgi zamon turk tilidagi egalik qo'shimchalari quyidagilardir: Birlik: 1-shaxs: -m (-im, -ım, -üm, -um); 2-shaxs: -n (-in, in, -ün, -un); 3-shaxs: -i, -ı, -ü, -u, -si, -sı, -sü, -su; Ko'plik: 1-shaxs: -miz, -mız, -müz, -muz, (imiz, -ımız, -ümüz, -umuz); 2-shaxs: -niz, -nız, -nüz, -nuz (-iniz, -ınız, -ünüz -unuz); 3-shaxs: -leri, -ları.

Egalik shaklining birlik va ko'plik ikkinchi shaxslaridagi -n tovu-shi hozirda ham turk tilining shevalarida jarangsiz -n (-ng) shaklida mavjud: *babang, eving, anangiz, sözüngüz* kabi. Birlik 3-shaxs egalik qo'shimchalari, undoshlar bilan tugagan so'zlarda -i, -ı, -ü, -u, unli bilan tugagan so'zlarda esa -si, -sı, -sü, -su dir: *eli, başı, gözü, boynuzu, tepesi, babası, köprüsü, korkusu* kabi.

Turk tilidagi **su** va **ne** so'zlarining egalik qo'shimchasini olishi istisno holatdir. Bu yerda egalik qo'shimchasidan oldin -y- undoshi orttiriladi. Ularda -y- tovushidan keyin -u- (-i) unlisi ham qo'shiladi: *suyum, neyim, neyi, neyimiz, suyunuz, suları* kabi.

Turk tili grammatikasiga oid kitoblarda egalik qo'shimchasini istisno shaklda oluvchi **ne** so'zining odatdagi shaxs shakllari ham mavjudligi aytib o'tiladi: *nem, nen, nesi, nemiz, neniz, neleri* (faqat bulardan faol qo'llanadigan *nesi* va *neleri* shakllaridir). "*Çarşıda mum pahalı, körün neyine*" (Bozorda sham qimmat, ko'rga nima farqi bor).

Ko‘plik 3-shaxs egalik qo‘shimchasi, aslida *–ler (-lar)* ko‘plik qo‘shimchasi bilan *–i (-i)* birlik 3-shaxs egalik qo‘shimchasidan tashkil topgan. Bu ko‘plik shakli egalik qo‘shimchasi bo‘lgan otning ko‘pligini ifodalab keladi. Shaxs birlikda ham, ko‘plikda ham bo‘lishi mumkin: *Onun ishlari, onlarning ishlari* kabi.

Ba‘zi hollarda egalik qo‘shimchasining ketma-ket kelganligini ham ko‘rish mumkin: *birisi, kimisi, cho‘g‘usu, hepsi (hepsi)* kabi. Bular da birinchi qo‘shimchaning egalik xususiyati yo‘qolgan va ikkinchi qo‘shimcha bilan kuchaytirilgan. 3-shaxslarda egalik qo‘shimchasi faqat shaxslarni emas, otlarni ham ko‘rsatadi: *onun kapisi, bahçenin kapisi, bahçe kapısı, onun üstü, denizin üstü* kabi.

Uchinchi shaxs egalik qo‘shimchalari o‘zidan keyin bir yordamchi *–n-* tovushi olib, boshqa qo‘shimchalarga bog‘lanadi: *elinde, ortasından* kabi.

Turk tilida so‘zga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda tovush o‘zgarish hodisasi ro‘y berishi mumkin. Bu hol jarangsiz undosh bilan tugagan so‘zlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda kuzatiladi, ya‘ni so‘z oxiridagi jarangsiz undosh tovush o‘zining jarangli juftiga aylanadi: *ç – c, p – b, k –ğ (g)*. Masalan: *ağaç – ağacın, kitap – kitabımız, bilek – bileğin, renk – rengi* va h.

Turk tilida egalik qo‘shimchalari urg‘uli talaffuz qilinadi.

Egalik ma‘nosi egalik qo‘shimchasi qo‘llanmasdan ham ifodalanishi mumkin: *benim ev, senin araba, sizin hanım* va h.

Sonlarning yozilishi (Sayıların yazılışı)

Sonlar ko‘pincha arab raqamlari bilan yoziladi. Raqamdan keyin kelgan o‘lchov birligi atamasi kichik harf bilan yoziladi: *25 mm, 70 kilometre, 1000 lira* va h.

Turk tilida *yüz* va *bin* dan oldin *bir* qo‘llanilmaydi (*yüz elli dört, bin dokuz yüz altmış üç*), lekin *milyon, milyar* sonlaridan oldin *bir* qo‘shib qo‘llanadi: *bir milyon sekiz yüz bin, bir milyar iki yüz altmış üç milyon* kabi.

Murakkab sonlar shaklidagi o‘nli, yuzli, mingli sonlar katta sonlar orasidagi o‘nlik, yuzlik sonlar uchun qo‘llaniladi: *iki yüz, beş yüz, altı yüz bin, bir milyon, dokuz yüz milyar* va h. Murakkab sonlar ajratib yoziladi.

Murakkab sonlar shaklidagi aralash sonlarga *on bir, altmış altı, yüz doksan, bin beş yüz, üç milyar beş yüz milyon* kabi butun sonlar

kiradi. Bu yerda katta son oldin, kichik son keyin keladi. Yirik sonlar katta sonlardan boshlanib, kichik sonlar sari (o'ngdan chapga) siralanadi: 38 (*otuz sekiz*), 2.729 (*iki bin yedi yüz yirmi dokuz*), 3.295.457 (*üç milyon iki yüz doksan beş bin dört yüz elli yedi*) kabi. Turk tilidagi *seksen*, *doksan* kabi sonlar, aslida, *sekiz on*, *dokuz on* birikmalaridan yuzaga kelgan. Shuningdek, *yirmi* soni aslida *yigirme* bo'lgan. So'ngra, *yigirmi*, *yiğirmi* shaklida o'zgara borgan va bir bo'g'in tushishi bilan adabiy tildan *yirmi* bo'lib o'z joyini olgan. Hozirgi paytda turk tili shevalarida ushbu sonning *yiğirmi* deb qo'llanayotganini ham uchratish mumkin. Miqdorni ifodalovchi sonlar (*bir* sonidan boshqa) ko'plik ma'nosiga ega. Shuning uchun ulardan keyin kelgan otga ko'plik qo'shimchasi (*-ler*, *-lar*) qo'shilmaydi: *beş elma*, *on sekiz çocuk*, *yüz lira* kabi. Bunda istisno holatlar ham mavjud: *kırk haramiler* (*qirq qaroqchi*), *dört büyükler*, *iki ahbap çavuşlar* va h.

O'zak imlosi (Köken Yazımı)

Imloda "o'rtoq so'zlashuv" qoidasiga amal qilinadi¹⁴. Ammo, yozuvda "o'rtoq so'zlashuv" qoidasining butun afzalliklarini ko'rsatish imkoni yo'q. Imloda, og'zaki nutqda so'zlarning o'zak va negizi kabi, qo'shimchalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, yozuvda ko'rsatilgan /n/ undoshi /b/, /p/ undoshlaridan oldin kelganda og'zaki nutqda /m/ kabi talaffuz qilinadi (*assimilyatsiya*): *onbaşı – ombaşı, binbaşı, bimbaşı, on bir – ombir, bin bir – bimbir* kabi.

Turk tiliga chetdan kirgan so'zlarda ham /n/ undoshi /b/, /p/ undoshlaridan oldin kelganda /m/ga aylanadi. Ham /m/ deb talaffuz qilinadi, ham yoziladi: *anbar – ambar, canbaz – cambaz* kabi (asl turkcha bo'lmagan *İstanbul* so'zi bundan mustasno).

An'anaviy imlo (Geleneksel Yazım)

An'anaviy imlo, asosan, kishi nasabini yozishda qo'llaniladi: *Kılıçoğlu* yoki *Kılıçoğlu*, *Hatiboğlu* yoki *Hatipoğlu*, *Gözel* yoki *Güzel*, *Taş* yoki *Daş* kabi.

Turklarda kishilarning ismi-sharifi ikki shaklda qo'llanadi. Rasmiy doiralarda, nutqiy vaziyatda kishining ismi(*adi*), so'ngra familiyasi (*soyadi*) aytiladi. Bunda ism bir yoki ikki otdan iborat

¹⁴ Шабанов Ж.К., Турк тили имло қоидалари, Тошкент, 1995, 21-б.

bo'lishi mumkin. Familiya esa doimiy ravishda bir otli bo'ladi. Masalan: *Ziya Gökalp, Cemal Nadir, Ahmet Kahveci; Osman Fikri Sertkaya, Ömer Faruk Poyraz, Ali Riza Ersoy.*

Ism tarkibiga ba'zan taxallus, unvonlar ham qo'shilishi mumkin: *Kasım Mustafa Paşa, Yirmisekiz Çelebi Mehmet, Tepedenlenli Ali Paşa.*

Arabcha va forscha atoqli otlarning yozilishi. Arab va forscha inson ismlari va joy nomlari Turk tilining tovush va tuzilish xususiyatlari, fonetik qoidalariga muvofiq yoziladi: *Bedrettin, Abdullah, Hayrullah, Fuat, Mehmet, Omer, Saadettin, Mekke, Medine, Cezair, Filistin, Isfahan, Tebriz, Tahrán* va h.

Lotin yozuvini qo'llanuvchi tillardagi otlarning yozilishi. Lotin yozuv tizimini qo'llanuvchi tillardagi atoqli otlar o'sha tildagi shaklida yoziladi: *Beethoven (Betxoven), Cervantes (Servantes), Rousseau (Russo), Clinton (Klinton), Grimm, Byron, Buenos Aires, Rio de Janeiro, New York* va b. Biroq turk tilida ushbu farqli yoziluvchi atoqli otlarning talaffuz shakllari yozuvda qavs ichida berilishi ham mumkin: *Shakespeare (Şekspir)* kabi. Ajnabiy atoqli otlardan yasalgan oqim nomlari turkchada qanday talaffuz qilinsa, shunday yoziladi: *luterçi, luterçilik, markscılık, marksist* kabi.

G'arb tillaridan turk tiliga kirgan kishi va joy nomlarining bir qismi turk tili imlo qoidalariga bo'ysunadi va ko'pdan beri turk tilida o'rnashib qolgan imlo qoidalari asosida yoziladi: *Napolyon, Şarlken, Şarl (Demirbaş Şarl), Atina, Bruksel, Paris, Selanik, Viyana, Zurih, Hollanda* kabi¹⁵. Lekin bunday otlarning asl holida yozilishi ham xato bo'lmaydi: *Napoleon, Karl* kabi.

Chetdan kirib kelgan bunday nomlarning yozilishida turk alifbesida qo'llanilmaydigan bir talay belgilar o'sha tilning o'zidagidek saqlanib qoladi. Masalan: *Bratianu, Capek, Dverak, Moliere, Gdansk, New York* va b.

Qo'shma so'zlarning yozilishi (Birleşik kelimelerin yazılışı)

¹⁵ Yazım Kılavuzu, Türk Dil Kurumu Yayınları, 25.Baskı, Ankara, 2008, Sunuş, S. 30-31.

Turk tilida belgisiz ot birikmalari, sifat birikmalari, qo'shma fe'llar, takror so'zlar, qisqartma so'zlar va qoliplashgan tuslangan fe'llardan iborat bo'lgan ifodalar, yangi bir tushunchani ifodalaganda qo'shma so'zlarga aylanadi: *yer çekimi, hanumeli, ses belgisi, beyaz peynir, açık göz, toplu iğne, eli açık, söz etmek, zikretmek, hasta olmak, gelebilmek, yazadurmak, alivermek, çoluk çocuk, altüst, günaydın, sağ ol, külbastı* kabi. Qo'shma so'zlar ma'lum qoidalarga ko'ra qo'shib yoki ajratib yoziladi: A) Qo'shib yoziladigan qo'shma so'zlar (*Bitişik Yazılan Birleşik Kelimeler*); B) Ajratib yoziladigan qo'shma so'zlar (*Ayrı Yazılan Birleşik Kelimeler*).

A) Qo'shib yoziladigan qo'shma so'zlar (*Bitişik Yazılan Birleşik Kelimeler*)

Bir xil ma'noli qo'shimchalarni anglatish uchun zarur bo'lgan yo'llardan biri so'zlarning qo'shilishidir. Turk tilida birlashtirish yo'li bilan yasalgan so'zlar salmoqli o'rin tutadi.

Turk tilida birlashtirish yo'li bilan yasalgan so'zlar ko'pchilikni tashkil etadi. Ular qo'shma so'zlar bo'lib, har doim qo'shib yoziladi. Qo'shma so'zlarning bir qismi o'xshatish bilan to'ldiruvchilarga aylangan. Bunday usul bilan hosil qilingan so'zlar qo'shib yoziladi: *aslanagzu* (gul turi), *devetabanı* (o'simlik turi), *kadıngöbeği* (shirinlik) kabi. So'zlar quyidagi hollarda qo'shib yoziladi:

Tovush tushishiga uchragan qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi: *kaynana* (<*kayın ana*), *kaynata* (<*kayın ata*), *nasıl* (<*ne asıl*) birbiri (<*biri biri*), *niçin* (<*ne için*), *pazartesi* (< *pazar ertesi*), *sütlaç – sütlü aş*, *niçin* (<*ne için*) kabi.

Veya, veyahut bog'lovchilari har doim qo'shib yoziladi.

Turk tilida yordamchi fe'llar turli grammatik ma'nolarni ifodalash, xususan, so'z yasash uchun xizmat qiladi: *et-, ol-, kıl-, eyle-*. *Teşekkür etmek, mutlu olmak, gerekli kılmak, rahmet eylemek* kabi. Yordamchi fe'llar fe'l va fe'l bo'lmagan so'zlar bilan birgalikda qo'llanib, qo'shimcha ma'no ifodalaydi, fe'llarning analitik shakllarini yasaydi. Bu fe'llardan ba'zilar otlarga qo'shib murakkab shakllar ham yasaydi: *affetmek, reddetmek, kaybolmak* va h. Qo'shma fe'llar, bir ot yoki otlashgan turkcha yoki boshqa tildan o'zlashgan qo'shimchalar bilan *etmek, edilmek, olmak, olunmak, eylemek, kılmak, kılınmak, yapmak* yordamchi fe'l qo'shimchalari yoki bir mustaqil so'z turkumiga oid so'zlar

vositasida yasaladi: *affet-*, *alt et-*, *hisset-*, *yardım et-*; *ilân edil-*, *emreyle-*, *kabul eyle-*; *namaz kıl-*; *yapabil-*; *açıver-*, *kırıp geçir-* va b.

Yordamchi fe'llar bilan yasalgan so'zlar tarkibida tovush orttirilishi yoki tushishi hodisalari ro'y berishi mumkin. Bular, asosan, *etmek*, *olmak* yordamchi fe'llari yordamida yasalgan qo'shma so'zlardir. Tovush orttirilishi natijasida qo'shib yoziladigan qo'shma so'zlar: *af - etmek > affetmek*, *hal - etmek > halletmek*, *his - etmek > hissetmek*, *zan - etmek > zannetmek*, *ret etmek > reddetmek* kabi. Tovush tushishi natijasida qo'shib yoziladigan qo'shma so'zlar: *emir - etmek > emretmek*, *nakil - etmek > nakletmek*, *şükür - etmek > şükretmek*, *kayıp - olmak > kaybolmak*.

Izoh: Faqat talaffuzda undoshning jaranglilashishi natijasida undosh tushishiga uchragan qo'shma so'zlar sirasiga quyidagilar kiradi: *azat etmek (talaffuzda - azadetmek)*, *hamt etmek (talaffuzda - hamdetmek)*, *icat etmek (talaffuzda - icadetmek)*. Bunday so'zlarda jaranglilashish faqat talaffuzda aks etadi.

Turk tilida birlashtirish yo'li bilan yasalgan so'zlar ko'pchilikni tashkil etadi. Ular qo'shma so'zlar bo'lib, har doim qo'shib yoziladi. Qo'shma so'zlarning bir qismi o'xshatish yo'li bilan ma'no o'zgarishiga uchraydi. Bunday usul bilan hosil qilingan so'zlar qo'shib yoziladi. Bulardan bir qismi o'simliklar va hayvonot olami, hasharotlar, predmet, jism va asbob-uskunalar, taom va turli yeguliliklar, rang-tus, xastalik va boshqa narsalar nomidir: *keçiboynuzu* (daraxt turi), *ayşekadın* (loviya turi), *hafızali* (uzum navi), *meryemanaeldiveni* ("Bibi Maryam qolqopi"), *ylanyastığı* ("ilon yostig'i"), *karadul* (o'rgimchak), *bozbakkal* (qush), *itfirseği* (ko'zga chiqqigan tirsak), *kabakulak* ("tepki" kasalligi), *kedigözü* (chiroq), *kancabaş* (qayıq), *kadınbudu* (kotlet turi), *dilberdudağı* (shirinlik), *fildişi* (rang), *tavşankanı* (to'q qirmizi rang) kabi.

Forschadan o'zlashgan *hane* so'zi bilan yasalgan qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi: *çayhane*, *dershane*, *kahvehane*, *yemekhane*, *süthane*.

Turk tilida kuchaytiruv sifatleri (pekiştirme sıfatları) qo'shib yoziladi: *bembeyaz*, *dosdoğru*, *sapsarı*, *sipsivri*, *dümdüz*, *kapkara*, *simsiyah*, *yemyeşil*, *sırlısklam*, *peşpeşe* kabi.

Har ikkala so'zi ham *-dI (-dU)* yaqin o'tgan zamon qo'shimchasi yoki *-r (-ar, -er, -Ir, -Ur)* hozirgi kelasi zamon qo'shimchasini olgan va qoliplashgan qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi: *dedikodu*,

kaptıkaçtı, oldubitti, biçerdöver, göçerkonar, kazaratar, konargöçer, uyurgezer, okuryazar, yanardöner, yüzergezer, çakaralmaz kabi.

Aniq bir makon, joyni ifodalamaydigan, oxiriga *alt, üst, üzeri* kabi soʻzlar qoʻshilib yasaladigan qoʻshma soʻzlar qoʻshib yozilasi: *ayakaltı, bilinçaltı, gözaltı, şuuraltı, akşamüstü, sırtüstü, olağanüstü, öğleüzeri, suçüstü, yüzüstü* kabi.

B) Ajratib yoziladigan qoʻshma soʻzlar (Ayrı Yazılan Birleşik Kelimeler)

1. Turk imlosida *etmek, edilmek, olmak, olunmak, eylemek, kıl-mak, kılınmak* yordamchi feʼllari bilan yasalgan qoʻshma feʼllar alohida yoziladi: *dans etmek, ilan edilmek, deli olmak, arz olunmak, kabul eylemek, namaz kılınmak* kabi.

2. Qoʻshma otlar tarkibidagi soʻzlar qoʻshilish asnosida maʼno oʻzgarishiga uchramasa, u holda ular alohida yoziladi: *yunus balığı, ton balığı, deve kuşu, yağmur kuşu, ateş böceği, hamam böceği, at sineği, meyve sineği, su yılanı, dağ keçisi, orman tavuğu* kabi.

3. Imloga koʻra *ev, ocak, yurt* soʻzlari bilan yasalgan qoʻshma soʻzlar ajratib yoziladi: *bakım evi, doğum evi, aş evi, düğün evi, ordu evi, radyo evi, yayın evi; aş ocağı, sağlık ocağı; öğrenci yurdu, sağlık yurdu* va h.

Turk tilida sifat darajalari va miqdorini koʻrsatish uchun *daha, en* va *pek* soʻz (ravish)lari ajratib yoziladi: *daha güzel, daha net, daha sıcak, en güzel, en sıcak, pek iyi* kabi.

Kayın birader, kayın peder, kayın valide kabi mustaqil shakllar, *ya da* kabi bogʻlovchilar ajratib yoziladi.

Juft va takror soʻzlar turk tilida koʻpchilikni tashkil etadi. Juft soʻzlar, kelishik va egalik qoʻshimchalari bilan kelgan takroriy soʻzlar ajratib yoziladi: *baka baka, konuşa konuşa, güle güle, düşe kalka, bata çıka, eski püskü va baş başa, el ele, iç içe, göz göze, omuz omuza, daldan dala, elden ele, boşu boşuna, ucu ucuna* kabi ravish shakllari.

Qoʻshimcha olmagan takror shakllari ham alohida yoziladi: *adım adım, kucak kucak, karış karış, akın akın, takım takım, ağır ağır, yavaş yavaş, derin derin, diri diri, sarı sarı* va h. Qadimgi turk tilidan bugungacha yetib kelgan va xalq ogʻzaki nutqida saqlanib qolgan soy *sop, pır pırt (pırını pırtını toplar – lash-lushini yigʻishtir), ev bark (evli*

barklı kadın – bola chaqali ayol), *çoluk çocuk* (bola-chaqa) kabi juft soʻzlar ham ajratib yoziladi.

Turk tilida ogʻzaki nutqda uchraydigan *m-* harfi yordamida yasalgan *dolap-molap, kitap-mitap, para-mara, kapı-mapı, ev-mev, araba-maraba* kabi juft soʻzlar alohida ajratib chiziqcha bilan yoziladi.

Ravishlarning takrorlanishi natijasida yasalgan juft soʻzlar alohida yoziladi: *yavaş yavaş, güzel güzel, uslu uslu, ağır ağır, tatlı tatlı* kabi.

Alohida yoziladigan juft soʻzlar orasiga vergul yoki boshqa tinish belgisi qoʻyilmaydi.

An be an, gün be gün, kat be kat kabi shakllar ham alohida ajratib yoziladi.

Hozirgi paytda baʼzi soʻz, soʻz qoʻshilmalari va birikmalarning yozilishida xatoliklarga yoʻl qoʻyilmoqda. Bunday hol, asosan, birliklarning qoʻshib yoki ajratib yozilishi, baʼzilarining ikki xil yozilayotganida namoyon boʻlmoqda.

Quyidagi jadvalda soʻzlar imlosi bilan birga, baʼzi soʻz, soʻz qoʻshilmalari va birikmalarning qoʻshib yoki ajratib yozilishiga eʼtibor berilgan:

<i>Yozilishi meʼyorlashgan, lekin imlo qoʻidalariga koʻra notoʻgʻri hisoblangan soʻz, soʻz qoʻshilmalari va birikmalar</i>	<i>Soʻz, soʻz qoʻshilmalari va birikmalarning imlo ʻoidalariga koʻra toʻgʻri yozilish shakli</i>
âlâ (aralash rang) ala (aʼlo) aşık (suyak) bakkâl başabaş baş bakan başbaşa birleşik bileşik bilimadamı birarada bir çoğu bir çok bir kaç	ala (aralash rang) âlâ (aʼlo) âşık (oshiq) bakkal başa baş başbakan baş başa bileşik birleşik bilim adamı bir arada birçoğu birçok birkaç

bir kaç	birkaçı
bir takım	birtakım
camii	cami
Dilbilgisi	dıl bilgisi
Dilbilimi	dil bilimi
dükkan	dükkân
hakim	hâkim
hakında	hakkında
hal (i)	hâl (i)
hala (babanın kız kardeşi)	hâlâ (<i>henüz</i> ma'nosida)
halbuki	hâlbuki
hastahane	hastane
hiç bir	hiçbir
hiç biri	hiçbiri
imkan	imkân
imla	imlâ
iş bu	işbu
kağıt	kâğıt
kaynaşma harfleri	kaynaştırma sesleri
mahcup	mahcup
mekan	mekân
milli	millî
sanaii	sanayi
Sesbilgisi	Ses bilgisi
sıksık	sık sık
Söz Dizimi	Söz dizimi
Kelime Bilgisi	Kelime bilgisi
Kelime Bilimi	Kelime bilimi
resmi	resmî
tarihi	tarihî
terketmek	terk etmek
Şekil Bilgisi	Şekil bilgisi
ünvan	unvan
uslup	üslup
yada	ya da
yanyana	yan yana
yar (im)	yâr (im) (<i>eş anlamında</i>)
zeka	zekâ

Qisqartmalarning yozilishi (Kisaltmaların Yazılışı)

Yozuvda qulaylikni ta'minlash va joy tejash maqsadida tez-tez uchraydigan tushunchalar, kitob va jurnallar nomi, ba'zi korxona, tashkilot va joy nomlari qisqartirilishi mumkin. Bunday qisqartmalar nutqda yaxshi o'rnashgan bo'ladi: *Dr. (doktor), Prof. (profesör), Cad. (cadde), Ar. (Arapça), s. (sayfa)* kabi.

Qisqartma tarkibidagi harflar har qisqatirilgan so'zning bosh harflari bo'lsa, o'zbek tilidan farqli tarzda har bosh harfdan so'ng nuqta qo'llanilishi mumkin: *P.T.T (posta, telgraf, telefon), T.C. (Türkiye Cumhuriyeti)* kabi. Qisqartirilgan o'lchov birliklari, pul birliklari, yo'nalish nomlari nuqtasiz yoziladi: *mm (milimetre), g (gram), hl (hektolitre), l (litre), m (metre), B (batı)* kabi.

Lug'at va qomusiy asarlar, ilmiy ma'lumotlarda ko'p qo'llaniladigan qisqartmalarning nuqtasiz yozilish holatlariga ham duch kelinadi: *s (sifat), Ar (Arapça), Alm (Almanca), Far (Farsça), Fr (fransızca), İn (İngilizce), T (Türkçe)* kabi.

Qo'shma so'zlarning qisqartmalari qo'shib yoziladi: *km (kilometre), sm (santimetre), hl (hektolitre), mm (milimetre)* kabi.

Qisqartma so'zlarning bosh harflari qanday bo'lsa, shunday qoladi, ya'ni kichik harfli qisqartma kichik harf bilan, katta harfli qisqartmalar esa katta harf bilan yoziladi: *s. (sayfa), mm (millimetre), vb. (ve baskalari)* kabi. Ammo yozuvda kichik harflar bilan yozilgan so'zlarning qisqartmasi katta harflar bilan yozilganiga ham duch kelinadi: *TL (Türk lirası), GĐ (Güneydoğu), K (kuzey), C (karbon), Ca (kalsiyum)* kabi.

Turk tilida tez-tez uchrab turadigan qisqartmalar quyidagilardir:

Qis-qartma	To'la shakli	Qisqartma	To'la shakli
a.	adına	TRT	Türkiye Radyo Televizyon Kurumu
AA	Anadolu Ajansı	TSE	Türk Standartları Enstitüsü
AB	Avrupa Birliği	TSK	Türk Silahlı Kuvvetleri

age	adı geçen eser	TT	Türkiye Türkçesi
AGİT	Avrupa Güvenlik ve İşbirliği Teşkilatı	TTK	Türk Tarih Kurumu
AŞ	Anonim şirket	TÜBA	Türkiye Bilimler Akademisi
B	Batı	TV	Televizyon
BDT	Bağımsız Devletler Topluluğu	UEFA	Avrupa Futbol Federasyonları Birliği (Union of European Football Associations)
bk.	bakınız	UHF	Ultra yüksek frekans (Ultra High Frequency)
BM	Birleşmiş Milletler	UNESKO	Birleşmiş Milletler Eğitim, Bilim ve Kültür Teşkilatı (United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization)
cad.	cadde	UNICEF	Birleşmiş Milletler Uluslararası Çocuklara Yardım Fonu (United Nations International Children's Emergency Fund)
çev.	çeviren	Ü	Üniversite
Dr.	doktor	ünl.	Ünlem
ISSN	Uluslararası standart dizi numarası (International Standart Serial Number)	vb.	ve başkası; ve başkaları; ve benzerleri
İETT	İstanbul Elektrik, Tünel, Tramvay İşletmesi	vd.	ve devamı; ve diğerleri
KD	kuzeydoğu	VIP	Çok önemli kişi (Very Important Person)
KKTC	Kuzey Kıbrıs Türk Cumhuriyeti	vs.	vesaire
km	kilometre	y.	yaprak; yerine
krş.	karşılaştırınız	Yay.	Yayını, yayınları
l	litre	yaz.	yazan
m	metre	Yb.	Yarbay
MGK	Millî Güvenlik Kurulu	YÖK	Yükseköğretim Kurulu

MİT	Millî İstihbarat Teşkilatı	YÖS	Yabancı uyruklu Öğrenci Sınavı
mm	milimetre	Yrd. Doç.	Yardımcı Doçent
g	gram	YSK	Yüksek Seçim Kurulu
G	güney	Yun.	Yunanca
Prof.	profesör	YURTKUR	Yükseköğrenim Kredisi ve Yurtlar Kurumu
sm	santimetre	yy.	Yüzyıl
TDK	Türk Dil Kurumu	Yzb.	Yüzbaşı
TİKA	Türk İşbirliği ve Kalkınma İdaresi Başkanlığı	zf.	Zarf
TL	Türk Lirası	ZMO	Ziraat Mühendisleri Odası
TOEFL	Yabancı dil olarak İngilizce testi (Test of English as a Foreign Language)	zm.	Zamir
TR	Türkiye	zool.	Zooloji

Bir necha soʻzdan tashkil topgan tashkilot va muassasa, jamoa nomlari, har bir soʻzidan bosh harf olinib qisqartiriladi. Bu qisqartmalar, asosan, katta harf bilan yoziladi va harfdan keyin nuqta qoʻyiladi: *T.C.(Türkiye Cumhuriyeti)*, *T.B.M.M.(Türkiye Büyük Millet Meclisi)*, *P.T.T.(Posta Telgraf Telefon)*, *O.D.T.Ü.(Orta Doğu Teknik Üniversitesi)* kabi. Soʻnggi yillarda bir necha soʻzdan iborat murakkab shaklga ega boʻlgan tashkilot, muassasa va jamoa nomlarining qisqartirilib nuqtasiz yozilishi keng tarqaldi: *TBMM (Türkiye Büyük Millet Meclisi)*, *PTT (Posta Telgraf Telefon)*, *ODTÜ (Orta Doğu Teknik Üniversitesi)* kabi.

Bir necha soʻzdan tashkil topgan baʼzi tashkilot va jamiyat nomlarining qisqartma shakllari qisqartirilgan harflar nomi boʻyicha oʻqiladi: *PTT (Posta Telgraf Telefon)* oʻrniga *pe – te – te*, *T.B.M.M. (Türkiye Büyük Millet Meclisi)* oʻrniga *te – be – me – me*, *ABD (Amerika Birleşik Devletleri)* oʻrniga *A – be – de* kabi.

Qisqartmalardan keyin keladigan va unli uygʻunligi qoidasiga koʻra moslashgan qoʻshimchalar apostrof bilan ajratiladi: *PTTʻye*, *TBMMʻden*, *ABDʻyle*, *BMʻden* kabi.

Oy va kun, bayram nomlarining yozilishi **(*Tarihler, Bayram ve Özel Gün Adlarının Yazılışı*)**

Türk tilida oy va kun nomlari gap ichida kelganda kichik harflar bilan yoziladi: *şubat, mart, nisan, ağustos, aralık, pazar, salı, çarşamba* (masalan: *Ülkemizde ağustos ayı da sıcak olur. Türkçe dersi çarşamba günü*).

Sanalar arab raqamlari bilan yoziladi: 1991, 2001, 2010 kabi. Oylar arab va rim raqamlari bilan ham belgilanishi mumkin: *ocak* (yanvar) – 01 yoki I; *mart* (mart) - 03 yoki III.

Tarixiy voqea, hodisalar bilan bog'liq sanalar katta harf bilan yoziladi: *29 Mayıs 1453 Salı günü* (İstanbul'un Fatih Sultan Mehmet tarafından alındığı gün). *29 Ekim 1923* (Türkiye Cumhuriyeti'nin ilânı) kabi. Matnda oy nomi qisqartirilishi mumkin emas. Oy nomidan oldin raqam bilan yozilgan kundan keyin nuqta yoki chiziqla qo'yilmaydi (*19 Mayıs, 29 Ekim, 24 Kasım*).

Sanalarning yozilishida kun, oy va yillarni bildiradigan sonlar orasida nuqta qo'yilgani kabi (*20/04/1958; 01/05/1963*), egri chiziqla ham ishlatilishi mumkin: *20/04/1958; 01/05/1963* kabi.

Raqamlar bilan yozilgan sanalardan keyin keladigan qo'shimchalar apostrof bilan ajratiladi: *1963'te, 25 ağustos 1990'da, 2010'da* kabi.

Bayram nomlari, mavsumlar, hafta nomlari, yig'ilish, anjuman nomlari ham kichik harflar bilan yoziladi: *kurban bayramı, ramazan (şeker) bayramı, nevrız, paskalya, anneler günü, yaz, kış, film haftası, dil kongresi* kabi.

Soat va daqiqalar, harorat va ba'zi o'lchov birliklarining yozilishi **(*Saat, Dakika, Sıcaklık Derecesi ve Ölçü Birimlerinin Yazılışı*)**

Soat va daqiqalar matn ichida so'z yoki arab raqami bilan yoziladi: *saat dokuzu on geçe, saat on bire beş kala, saat 10.25'te* kabi.

Issiqlik haroratini bildirishda C (*Celsius*) qisqartmasining ilmiy asarlarda C shaklida ko'rsatilishi lozim, lekin oddiy matn ichida uni *derece (daraja)* so'zi bilan berilishi maqsadga muvofiq: *37 derece, 42 derece* kabi.

Adres matnining yozilishi (*Adreslerin Yazılışı*)

Türk tilida adres o'ziga xos shaklda yoziladi. Pochta jo'natmalarida oluvchining ismi, nasabi, manzili quyidagi tartibda yoziladi:

Sn. Doğan Örnek

Merkez Efendi Sok. Güneş Ap. 19. Daire 63.

Zeytinburnu / İstanbul

Jonatuvchining manzili konvertning chap tomonidan yuqoridagi burchakka yoziladi.

TINISH BELGILARI IMLOSI **(*Noktalama İşaretleri*)**

Fikr va his-tuyg'uni aniq-ravshan ifoda etish, gapning tuzilishi va pauza nuqtalarini aniqlash (belgilash), o'qish va tushunishni osonlashtirish, so'z, gapning urg'u va ton kabi xususiyatlarini ta'kidlash, xususan, harf bilan anglatib bo'lmaydigan qator vazifalarni bajarish uchun tinish belgilari qo'llaniladi¹⁶.

Tinish belgilari (punktuation belgilar) türk tilida *noktalama işaretleri* deb yuritiladi. Bular nuqta (. - *nokta*), vergul (, - *virgül*), nuqtali vergul (; - *noktalı virgül*), ikki nuqta (: - *iki nokta*), ko'p nuqta (... - *üç nokta*), so'roq belgisi (? - *soru işareti*), undov belgisi (! - *ünlem işareti*), defis (- *kısa çizgi*), tire (– *uzun çizgi*), qo'shtirnoq (" " - *turnak işareti*), yoy qavs (() - *yay ayraç, parantez*), burchakli qavs ([] - *köşeli ayraç*), tutuq belgisi (' - *kesme işareti*)dir.

Nuqta (*nokta*) va uning ishlatilish o'rinlari. Gapning ma'nosi u tugagach anglashiladi. Ya'ni bu belgi gap tugaganligidan darak beradi.

Gazeta, jurnal, kitob, she'r nomlari, sarlavha, matnlarda bo'lim, qism nomlaridan keyin nuqta qo'yilmaydi.

Tashkilot va muassasalar nomidan keyin ham nuqta qo'yilmaydi:

Dış İşler Bakanlığı

Taşkent Devlet Şarkınaslık Enstitüsü

Türk Dili ve Edebiyatı Bölümü kabi.

Texta va lavhlar oxirida ham nuqta qo'llanilmaydi:

¹⁶ Yazım Kılavuzu, Türk Dil Kurumu Yayınları, 25.Baskı, Ankara, 2008, S. 32.

Çiçek Sineması

Sağlık Ocağı

Başkan kabi.

Nuqta, asosan, quyidagi o‘rinlarda ishlatiladi:

1. Gapning oxiriga qo‘yiladi: *Ben dünya klasiklerini severek okuyorum.*

2. Ba’zi qisqartmalardan keyin qo‘yiladi: *T.C.(Türkiye Cumhuriyeti), Dr. (doktor), Yard. Doç. (Yardımcı Doçent), Prof. (profesör), Cad. (cadde), Sok. (sokak), vb. (ve başkası, ve benzeri, ve bunun gibi), Alm. (Almanca), Ar. (Arapça), s. (sayfa) kabi.*

So‘nggi yillarda tashkilot va muassasa nomlarining bosh harflari yonma-yon qo‘llanib yasalgan qisqartmalarda nuqta qo‘llanilmayapti: *TBMM (Türkiye Büyük Millet Meclisi), NATO (North Atlantic Treaty Organization), BM (Birleşmiş Milletler), ABD (Amerika Birleşik Devletleri), AB (Avrupa Birliği) kabi.*

3. Raqamlardan so‘ng sira (tartib)ni bildirish uchun (o‘zbekchadagi *-inchi* qo‘shimchasi o‘rnida) qo‘llaniladi: 3. (üçüncü), 15. (on beşinci), IV. (dördüncü). *VIII. yüzyıl, 2. cadde, II. Mehmed (İkinci Mehmed).*

4. Matn moddalarini bildirgan raqam yoki harflardan so‘ng qo‘llaniladi: I. 1. II. 2. A. a.

5. Sana qayd etilganda kun, oy va yil ishoralari orasiga qo‘yiladi: 15.09.2009; 22.04.2010.

Soat va daqiqalarni bir-biridan ajratish uchun ham nuqta ishlatiladi: *Tören saat 18. 30’da başlayacak. Tren 07. 35’te kalktı.*

6. Besh va undan ortiq raqamdan iborat katta sonlarni yozishda, har uch raqamdan keyin qo‘yiladi: 234. 567; 890. 567. 345 (34. 456. 678) kabi.

Vergul (*virgül*) va uning ishlatilish o‘rinlari. Turk tilida gapdagi bir xil ma’noli so‘zlar, so‘z birikmalari, sodda gaplar orasiga vergul (*virgül*) qo‘yiladi. Imlo qoidalariga binoan, vergul, asosan, quyidagi o‘rinlarda ishlatiladi:

Sanash ohangi bilan aytilgan gap ning uyushiq bo‘laklari orasiga vergul qo‘yiladi: *Fırtınadan, soğuktan, karanlıktan ve biraz da korkudan sonra bu sıcak, aydınlık ve sevimli odanın havasında erir gibi oldum.*

Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biridan ajratish uchun vergul qo'yiladi: *Bir varmış, bir yokmuş.*

Gapda maxsus urg'u berilishi lozim bo'lgan gap bo'lagidan keyin vergul qo'yiladi: *Biz her vasitadan, yalnız ve ancak, bir noktainazardan istifade ederiz.*

Maxsus ta'kidlanuvchi bo'laklardan so'ng vergul qo'yiladi: *Örnek olsun diye, örnek istemez ya, söylüyorum.*

Kirish so'z, kirish gap, xitoblar, murojaatlar, undalmalardan so'ng vergul qo'yiladi: *Şimdi, efendiler, müsaade buyurursanız, size bir sual sorayım* (Atatürk).

Değerli arkadaşım, ... Sayın Başkan, ... Sevgili anneciğim, ...

Yozishmalarda joy nomini tarixiy sana, vaqtdan ajratish uchun vergul ishlatiladi: *Kuşadası, 7 Şubat.* (R.N. Güntekin, Çalıkuşu).

Turk tilida ve, veya bog'lovchilaridan oldin va keyin vergul qo'yilmaydi: *Sen ve Ben. Ahmet veya Mustafa.*

Tutuq (ayirish) belgisi (apostrof; kesme işareti). Turk tili imlosida tutuq (ayirish) belgisining ahamiyati katta. Tutuq belgisi (kesme işareti; apostrof), asosan, quyidagi o'rinlarda qo'llaniladi:

Atoqli otlarga egalik va kelishik qo'shimchalari qo'shilganda: *Yunus Emre'yi; Türkiye'de; Çankaya Köşkü'ne; Fatih Sultan Mehmet'e; Van Gölü'ne; Ağrı Dağı'nın; Taşkent'im; Özbekistan'dan.*

Qisqartmalarga qo'shimcha qo'shiladiganda: *ABD'de; BM'de; TBMM'nin; NATO'dan; UNESCO'ya; TRT'den; THY'de.*

Sonlar raqam bilan yozilganda ularga tartib qo'shimchasi qo'shilganda: *8'inci; 6'inci; 19'uncu; 3'üncü; 1985'te; 2001'de.*

Turk tilida bir so'zdan biron unli tovush tushib qolganligini ko'rsatish uchun apostrof qo'yiladi: *N'oldu? (Ne oldu?), N'etsin? (Ne etsin?), N'apalım? (Ne yapalım?).*

Gazeta va jurnallarning nomlari, sarlavhalar, asar nomlariga qo'shimchalar qo'shilganda ham ular apostrof bilan ajratiladi: *Resmi gazete'de, Milliyet'te, Sabah'ta, Cahit Sıtkı'nın Otuz beş yaş'ı.*

Atoqli otlardan yasalgan ba'zi bir so'zlarda fe'l (noaniq shakllari) va sifatlarda apostrof qo'llanilmaydi: *Türklük, Türkçe, Tokyolu, Adanalı kabi.* Ammo, oxirida o'qilmaydigan harflar uchraydigan boshqa tillardan kirgan atoqli otlardan keyin keladigan qo'shimchalar apostrof bilan ajratiladi: *Lille'li, Bordeaux'lu, Bruxelles'li kabi.*

Turk tilida `o` kishilik olmoshining gapda katta harf bilan (O) yozilishi va apostrof belgisi bilan ajratilib, *O`na, O`nun, O`ndan* kabi yozilishi xato hisoblanadi. Faqat `o` deganda ulug` bir zot ko`zda tutilganda `o` kishilik olmoshi gap ichida katta harf bilan yoziladi: *O`na, O`nun, O`ndan (Her shayi bilen O`dur)* kabi.

**So`roq belgisi** (*Soru işareti*). So`roq belgisi (?) matnda, asosan, quyidagi o`rinlarda qo`yiladi:

So`roq gaplardan keyin qo`yiladi:

Sular mı yandı? Neden tunca benziyor mermer?

So`roq ma`nosidagi so`zlardan keyin: *kim? ne? nasıl? neden? niçin?*

Urg`u bilan ta`kidlangan so`roq mazmunidagi jumla yoki gap bo`laklaridan keyin ham so`roq belgisi qo`yiladi: *Gümrükteki memur başını kaldırdı:*

- Adınız?

Undov belgisi (*Ünlem işareti*). Undov belgisi (!), asosan, quyidagi o`rinlarda ishlatiladi:

His-hayajon mazmunidagi gaplardan so`ng: *Hava ne kadar da sıcak! Aşk olsun!*

Xitoblar, murojaatlar va ogohlantirishlardan so`ng: *Dünyada barış olsun!*

Dur, yolcu! Bilmeden gelip bastığın

Bu toprak bir devrin battığı yerdir.

Burada sigara içilmez!

**Qo`sh (tek) tirnoq**. Qo`shtirnoq belgisi (" - ") turk tilida *turnak işareti*, tektirnoq belgisi (' - ') *tek turnak işareti* deb ataladi. Qo`shtirnoq matnda, asosan, quyidagi o`rinlarda qo`yiladi:

Ko`chirma gaplar qo`shtirnoqqa olinadi:

"İzmir üzerine dünyada bir şehir daha yoktur!" diyorlar.

Ta`kidlanishi zaruriy bo`lgan so`z va birikmalar qo`shtirnoqqa olinadi: *Yeni bir "barış taarruzu" başladı.*

Asar nomlari, maxsus nomlar qo`shtirnoqda beriladi: *Yahya Kemal'in bazı şiirleri "Kendi Gök Kubbemiz" adı altında çıktı.*

Lekin nashrlarda asar nomlari, gazeta-jurnallar nomi qo'shtirnoqqa olinmay, alohida harflar (yotiq, to'q harflar) bilan berilishi ham mumkin: *Bugünün gençleri* **Dar Kapı'yı** okumalıdır.

Turk imlosida tektirnoqning ham vazifasi turg'undir. Tektirnoq belgisi:

Ko'chirma gaplar ichidagi qo'shtirnoqqa olinuvi kerak bo'lgan o'rinlarda ishlatiladi:

Edebiyat öğretmeni "Şiirler içinde 'Han Duvarları' gibisi var mı?" dedi ve Faruk Nafiz'in bu güzel şiirini okumaya başladı.

Ma'nosi hozirgi kitobxonga tushunarsiz bo'lgan so'zlar izohlanganda tektirnoqdan foydalaniladi:

Göktürk Anıtları'nda geçen ayrı örnekler: bodun 'millet, kavim', sab 'söz', eçü apa 'ecdat, atalar'.

Ikki nuqta. Turk tilida ikki nuqta *iki nokta* (:) deyiladi. Ikki nuqta, asosan, quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

Umumlashtiruvchi so'z, o'zidan so'ng izoh yoki misollar beriladigan gaplardan keyin: *Buğdayla arpadan başka ne biter bu topraklarda? Ziraatçı sayar: yulaf, pancar, zerzevat, tütün.*

Badiiy asarda dialoglarda ishlatiladi:

Bilge Kağan: Türklerim, iştin! Üstten gök çökmedikçe, alttan yer delinmedikçe ülkenizi, törenizi kim bozabilir sizin?

Koro: Göğ e erer başımız başınla senin.

Ikki nuqtadan keyin keluvchi izoh mustaqil bir gap bilan boshlanadigan bo'lsa, bu gapning har ikki qismi katta harf bilan yoziladi: *Bilmeyenlere söyleyelim: Bu iş böyle devam etmeyecek.*

Turk tilida jo'natmalarda, katalog, tartibnomalarda yozuvchi, muallif nomi bilan asar nomi orasiga ikki nuqta qo'yiladi: *Yahya Kemal Beyatlı: Kendi Gökkubbemiz; Fatih Rıfki Atay: Çankaya; Refik Halid Karay: Memleket Hikayeleri.*

Nuqtali vergul. Turk tilida nuqtali vergul *noktalı virgül* (;) deyiladi. Nuqtali verguldan, asosan, shunday holatlarda foydalaniladi:

